

GOLDEN BRAIN

Scientific Journal

ISSN: 2181-4120



Volume 2, Issue 4



CiteFactor
Academic Scientific Journals



Google
Scholar



® digital object
identifier

zenodo

2024/04
February

ISSN 2181-4120
VOLUME 2, ISSUE 4
FEBRUARY 2024



<https://researchedu.org/index.php/goldenbrain>

**“GOLDEN BRAIN” SCIENTIFIC JOURNAL
VOLUME 2, ISSUE 4, FEBRUARY, 2024**

EDITORIAL BOARD

G. Kholmurodova

Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

A. Madaliev

Professor, Doctor of Economics, Tashkent State Agrarian University

G. Sotiboldieva

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

U. Rashidova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Philological Sciences, Samarkand State University

D. Darmonov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

X. Abduxakimova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

U. Ruzmetov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Chemical Sciences, National University of Uzbekistan

M. Yusupova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

M. Kambarov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Namangan State University

S. Sadaddinova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Physics and Mathematics Sciences, Tashkent University of Information Technologies

M. Fayzullaev

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) Geographical Sciences, Karshi State University

Z. Muminova

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine

B. Kuldashov

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine

Kh. Askarov

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Fergana Polytechnic Institute

S. Nazarova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Bukhara State University

O. Rahmonov

Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Fergana Polytechnic Institute

G. Tangirova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

Z. Koryogdiev

Doctor of Philosophy (Phd) in Historical Sciences, Bukhara State University

S. Ubaydullaev

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology

R. Yuldasheva

Associate Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

M. Yuldashova

Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Namangan State University

Editorial Secretary: J. Eshonkulov

“SOHILSIZ DENGIZ” ASARIDA SINTAKTIK BOG‘LI ALOQALARNING QO‘LLANILISHI

Abdumanoboyeva Begoyim Muhammadjon qizi

Andijon davlat padagogika instituti Filologiya fakulteti talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Ahmad Muhammad Tursunning “Sohilsiz dengiz” asariga munosabat bildirilgan. Yozuvchining badiiy mahorati masalalariga e’tibor qaratilgan hamda yozuvchi tomonidan mohirlik bilan ishlatilgan sintaktik bog‘li aloqalar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: sintaktika, so‘z, tilshunoslik, so‘z birikmasi, moslashuv, boshqaruv, bitishuv, gap, tobe bog‘lanish.

ABSTRACT

This article deals with Ahmad Muhammad Tursun’s work "The Shoreless Sea". Attention is paid to the issues of the writer’s artistic skills and the syntactical links skillfully used by the writer are analyzed.

Key words: syntax, word, linguistics, word combination, adaptation, management, agreement, sentence, subordination.

Kirish.

O‘zbek tilshunoslari tomonidan so‘zlarning sintaktik bog‘lanishi o‘rganilib tadqiq qilinarkan, tildagi sintaktik munosabatlar, sintaktik qurilish va turli sintaktik jarayonlar yuzasidan fikr-mulohazalar turlicha tahili etiladi. Shu kabi barcha jarayonlar sintaksis bo‘limida qamrab olinadi va o‘rganiladi. Tilshunoslik fanida sintaksis so‘z birikmasi sintaksisi va gap sintaksisi qismlariga bo‘lib o‘rganilishi so‘z birikmasining tildagi funksiyasini alohida belgilab olgan holda tahlil va tadqiq etishni taqozo etadi¹.

¹ O‘zbekiston Milliy axborot agentligi O‘zA Ilm-fan bo‘limi. Elektron jurnal. 2022-yil avgust soni N_8(34).- Toshkent, 2022.

Asosiy qism.

Sintaktika haqida soʻz yuritishdan avval, Ahmad Muhammad Tursunning “Sohilsiz dengiz” asari haqida biroz fikr yuritsak. Islom dinida Qur’oni Karimdan keyingi eng ishonchli manba sifatida yurtdoshimiz Imom Buxoriyning hadislarini ta’rif etiladi. Ushbu kitobda Abu Abdullohning yoshlik paytlari, oʻsmirlik yoshlari, ustozlari va to vafot etgunlariga qadar koʻrgan azob-uqubatlarini yoritib beriladi. Asarni oʻqiganizda Imom Buxoriyning haqiqiy inson, ustoz va buyuk shaxs sifatida taniysiz. Oʻn bir yoshida ustozlari xatolarini ilm yoʻlida toʻgʻirlashdek zehnga ega boʻlish va Buxoriyning onalari fidokorligiga, farzandining ilm olishini xohlab qancha qiyinchiliklarga dosh bera olgan bir ona sabriga tahsinlar aytasiz. Imom Buxoriyning ilmni oʻrgatishga boʻlgan ishtiyoqlari, shogirdlari va atrofdagilarga mehri va har sinovga sabr qilishi koʻp tomonlama bizga oʻrnak boʻla oladi¹. Kitobni oʻqish davomida Muhammad ibn Ismoilning hadislarini toʻplash va ularni sahih, zaif hadislariga ajratish jarayonidagi mashaqqatlarni bilishingiz, hasadning bir olimni qay koʻylarga solganidan xabardor boʻlishingiz mumkin. Fikrimiz davomida sintaktik bogʻli aloqalar bilan davom ettirsak. Sintaktik jihatdan biri ikkichisiga boʻysunadigan, biri ikkinchisiga tobe boʻlgan birliklar orasida tobe aloqa mavjud boʻladi. Tobe aloqada bir soʻz ikkinchisiga nisbatan tobe, ikkinchisi esa unga nisbatan hokim vaziyatda boʻladi. Tobe aloqaning 3 xil turi bor: boshqaruv, moslashuv, bitishuv. Boshqaruv aloqasida tobe soʻz hokim soʻzning talabi bilan maʼlum grammatik shaklga kiradi, shu shakl orqali tobelanadi: bozorga bormoq, qalam bilan yozmoq. Moslashuv aloqasida tobe soʻz oʻz shaklini hokim soʻzning shakliga moslaydi, hokim soʻzning shakli oʻzgarishi bilan tobe soʻz ham unga moyil holda shaklini oʻzgartiradi: men aytaman, sen aytasan; mening kitobim, uning kitobi kabi. Bitishuv aloqasida tobe soʻz hokim soʻzga grammatik shakl yordamida emas, balki tartib va ohang orqali bogʻlanadi: musaffo osmon, tez gapirmoq kabi².

¹ Salomova Guljamol “Ahmad Muhammad Tursunning “Sohilsiz dengiz” asarida Imom al-Buxoriy obrazi” ARTICLES Published 2023-07-03

² Mahmudov N., Nurmonov A. Oʻzbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis). – Toshkent, 2009

Sintaktik bog‘li aloqlarni quyidagi “Sohilsiz dengiz” asaridan keltirilgan parchani sintaktik bog‘li aloqalar bilan tahlil qilsak:

“Shuni aniq bildimki, agar butun ummat birlashib, senga foyda keltirmoqchi bo‘lsalar, Alloh senga nasib qilgan narsanigina naf keltira olgaydir. Yoki ular birlashib, senga biror zarar bermoqchi bo‘lsalar ham, faqat Alloh peshonangga bitgan zararnigina yetkaza oladilar. Bandaning taqdirini bitishdan qalamlar bo‘shab, sahifalardagi siyohlar ham qurib bo‘lgan”¹.

Boshqaruvli: shuni aniq bildimki, senga foyda keltirmoqchi, senga nasib qilgan, senga biror zarar bermoqchi bo‘lsalar, peshonangga bitgan, taqdirini bitishdan, sahifalardagi giyohlar. Moslashuvli: Allohning senga, sening peshonangga, bandaning taqdiri. Bitishuvli: ummat birlashib, foyda keltirmoqchi, Alloh senga, nasib qilgan, zarar bermoqchi, naf keltira olmoq, yetkaza oladilar, qalamlar bo‘shab, qurib bo‘lgan kabi sintaktik aloqlarni ko‘plab uchratish mumkin.

XULOSA

Fikrimiz xulosasi o‘rnida quyidagi so‘zlarni keltirmoqchimiz: O‘zbek tilshunosligida so‘zlarning bog‘lanishi tuzilish strukturasi ko‘ra, sintaktik munosabatga kirishishiga ko‘ra, ba‘zi shakllarda so‘zga, ba‘zi o‘rinlarda gapga tenglanishiga ko‘ra murakkab tuzilma hisoblanadi. Ular uchun ayni bir qolipni belgilab olish qiyin hisoblanadi. Shuningdek, sintaktik bog‘li aloqlar tarkibida o‘rganilayotgan nomli birikmalarni ham qayta ko‘rib chiqish zaruriyat paydo bo‘ladi.. Bir so‘z bilan aytganda, so‘z sintaktik aloqlari tasnifi va uni o‘rganish masalasi bugungi kunda ham dolzarbligicha qolmoqda.

¹ Ahmad Muhammad Tursun. Sohilsiz dengiz. Roman. -Toshkent. Hilol nashr, 2020..

REFERENCES

1. Ahmad Muhammad Tursun. Sohilsiz dengiz. Roman. - Toshkent. Hilol nashr, 2020..
2. Arabboyeva M. A. “Ona tili darslari orqali o‘quvchilarning ijtimoiy –emotsional-fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish” Zamonaviy ta’lim. Toshkent 2022/ 12 43-47
3. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis). – Toshkent, 2009
4. Salomova Guljamol “Ahmad Muhammad Tursunning “Sohilsiz dengiz” asarida Imom al-Buxoriy obrazi” ARTICLES Published 2023-07-03

ABDULLA QODIRIYNING “O‘TKAN KUNLAR” ASARIDA QO‘LLANILGAN QO‘SHMA GAP TURLARI

To‘ychiboyeva Gulrux Baxtiyorjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti talabasi

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada tishunoslikning muhim qismi bo‘lgan qo‘shma gaplar va ularning turlari, Abdulla Avloniyning “O‘tkan kunlar” asarida qo‘llanilgan qo‘shma gaplarning turlari hamda o‘rni tahlil etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** grammatika, qo‘shma gap, til, xalq, bog‘langan, ergashgan, bog‘lovchisiz, tarix, tilshunoslik.*

***Abstract:** This article analyzes the conjunctions and their types, which are an important part of theology, the types and the place of the conjunctions used in Abdulla Avlani’s work "The Past Days".*

***Key words:** grammar, compound sentence, language, people, linked, followed, unlinked, history, linguistics.*

Kirish

Har bir xalqning ruhiy dunyosi, urf-odatlari, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy ahvoli aks etadigan vositalardan biri bu bevosita til hisoblanadi. Shu bois til xalq ziynatining xolis va mumtoz ko‘zgidir, desak yanglishmagan bo‘lamiz. Bu o‘rinda German Paulning «Insoniyat yaratgan barcha madaniyat singari til ham tarixiy jihatdan tekshiriladigan predmetdir» degan fikri diqqatga sazovordir. Shuning uchun har bir kishi til haqida to‘liq ma‘lumotga ega bo‘lsa, o‘z tilining tovushlar tizimi, lug‘at boyligi, so‘z qo‘llash imkoniyatlari, jumla tuzish mashaqqatlarini atroflicha his etsa, til va xalqning ham tarixini anglay oladi¹.

¹ Arabboyeva Mahfuza Akramjonovna “Ona tili darslarini milliy dastur talablari asosida tashkil etish dolzarb pedagogik muammo sifatida” Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2023/7 718-725

Ma'lumki, qo'shma gaplar haqida hozirgi o'zbek tilida bir qator munozarali masalalar mavjud. Shu masalalarni qisman bo'lsa-da o'rganish, yuqorida ta'kidlangan muammolar haqida o'z fikrlarimizni berib o'tish uchun, shu sohaga oid bo'lgan ilmiy tadqiqotlar, ilmiy adabiyotlar bilan tanishishga harakat qildik.

Asosiy qism.

Ergashgan Qo'shma gaplar haqida fikr yuritishimizdan oldin Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romaniga biroz nazar tashlasak. Yangi hayotga intilish nuqtai nazaridan baholash ruhi bilan sug'orilgan Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" asarida feodal davrni mehnatkashlar uchun zulm, baxtsiz xorlik davri sifatida qoralaydi. O'tmishga shunday baho ma'rifat jihatdangina emas, ijtimoiy va siyosiy jihatdan ham katta aktual ahamiyatga ega edi. Yangicha davrga intilish, xalq ongida o'tmishning adolatsizliklari haqida chuqur tushuncha hosil qilish bilan ham bog'liq edi. Zamonasining ijtimoiy ehtiyojlarini sezgan Abdulla Qodiriy uchun birdan-bir to'g'ri yo'l-haqqoniy tasvir yo'li bilan boradi. Abdulla Qodiriy davrning hayot manzarasini, oddiy kishilarning taqdirini tasvirlash orqali yaratishi xarakterlidir, bu esa yetuk romanchilik xususiyatidir. Asar milliy adabiyotning asriy an'alaridan ajrab qolmagan, ularning yeng yaxshilarini rivojlantirish ruhida yozilgan. Asarda yozuvchi tomonidan ergashgan qo'shma gaplarning barcha turlarini uchratish mumkin. Avvalambor, ergashgan qo'shma gaplar haqida ma'lumotlarga nazar solsak.

Ikki yoki undan ortiq grammatik asosning mazmun, grammatik va mazmunga ko'ra birikishidan hosil bo'lgan gap qo'shma gap deyiladi. Qo'shma gap grammatik asosi ikki yoki undan ortiq gaplar bo'lib, uning qismlari mazmun va grammatik jihatdan, shuningdek, intonatsiyaga ko'ra birikib, bir butunlikni tashkil qiladi. Masalan: quyosh jilmayib boqar va sarg'aygan ko'katlar kokilida shudring jilovlanardi. (O'. Hoshimov). Bu qo'shma gap tarkibida ikkita grammatik asos bo'lib, ular orasida bir paytda ro'y berayotgan voqea-hodisalar ifoda etilgan. Qo'shma gap qismlari esa zidlov bog'lovchisi yordamida o'zaro birikkan. Qo'shma gaplar, qismlarining o'zaro birikish usuli va semantik munosabatiga ko'ra uch xil bo'ladi.

1. Bog'langan qo'shma gap.

2. Ergashgan qo‘shma gap.

3. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap.

Qiyoslang: Istedod hamisha xar xil bo‘ladi, istedodsizlar esa hamma joyda bir xil. (E.Vohidov) Shuni aytmoqchimizki, odam hamma vaqt bilimga tashna bo‘lishi shart. Fan xalqqa suv-havodek zarur, uni taraqqiy ettirmagan mamlakat, shubhasiz, mustamlakaga aylanadi.

Keltirilgan misollardan birinchisi bog‘langan qo‘shma gap bo‘lib, uning qismlari esa yordamchisi vositasida o‘zaro teng bog‘langan; ikkinchisi ergashgan qo‘shma gap bo‘lib, uning qismlari -ki aniqlov bog‘lovchisi orqali ikkinchi qism birinchi qismga tobelik yo‘li bilan bog‘langan; uchinchi gap bog‘lovchisiz qo‘shma gap bo‘lib, uning qismlari o‘zaro hech qanday bog‘lovchi vositalarsiz, faqat intonaqiya (ohang) orqali birikkan. Quyida “O‘tkan kunlar” asaridagi parchada ergashgan qo‘shma gaplarning turlarini tahlil qilishga harakat qilamiz. “Kumush ham ariq yoqasiga kelib to‘xtagan chingilin yigitga beixtiyor qarab qoldi. Ixtiyoriy emas, g‘ayri ixtiyoriy ikkisi ham bir-biridan birmuncha vaqt ko‘z ololmadilar. Oxirda Kumush nimadandir cho‘chigandek bo‘ldi, yengilgina bir harakat bilan o‘zini ichkari yo‘lak tomonga burdi. Bu burilishdan uning orqa-o‘ngini tutib yotgan qirq kokillari to‘lqinlandi. Kumush ichkariga qarab chopar ekan, yo‘l ustidan ariq bo‘yida qotib turgan yigitga yana bir qarab qo‘ydi va bu qarashda unga yengilgina bir tabassum ham hadya qildi. Kumush ichkariga kirib ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi, lekin Otabek yana bir necha daqiqa yerga mixlangandek qotib qoldi”¹. Yozuvchi tomonidan birgina Otabek va Kumushning ilk uchrashuvini tasvirlashda ergashgan qo‘shma gaplarning barcha turidan foydalanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa.

Qo‘shma gaplar barcha tillarda grammatikaning asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Qo‘shma gap turlarining o‘rganilishiga, gap tadqiqi bilan bog‘liq muammolar va turli tillarda gaplarning taqqoslash va qiyoslash masalalariga alohida e‘tibor qaratiladi. Shuning uchun turli oila va guruhlariga mansub tillardagi qo‘shma

¹ Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” Ziyouz.com kutubxonasi 2022

gaplarni va ularning turlarini qiyoslash va farqlash bugungi kun dolzarb masalalardan biri hisoblanadi¹. Albatta, tilshunoslikning har bir yo‘nalishida qo‘shma gaplar va ularning muammolarini tahlil qilish yangicha yondashuvlarni va usullarni talab qiladi. Shuning uchun, qo‘shma gaplarning asosiy til birligi sifatida alohida o‘rganish mavzusi diqqatga sazovordir.

REFERENCES

1. M.Hamroyev. Ona tili. Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2013. 41-55
2. M.Hamroyev. Ona tilidan lisoniy tahlil qoliplari. Toshkent: TDPU. 2019. 12-24
3. Абдухалимова, С. У. О‘zbek tilshunosligida sintaksis va qo‘shma gaplar nazariyasi / С. У. Абдухалимова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 20 (310). — С. 674-676. — URL: <https://moluch.ru/archive/310/69941/> (дата обращения: 27.01.2024).
4. Arabboyeva Mahfuza Akramjonovna “Ona tili darslari orqali o‘quvchilarning ijtimoiy –emotsional-fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish” Zamonaviy ta’lim. Toshkent 2022/ 12 43-47
5. Arabboyeva Mahfuza Akramjonovna “Ona tili darslarini milliy dastur talablari asosida tashkil etish dolzarb pedagogik muammo sifatida” Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2023/7 718-725
6. Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” Ziyouz.com kutubxonasi 2022

¹. Абдухалимова, С. У. О‘zbek tilshunosligida sintaksis va qo‘shma gaplar nazariyasi Молодой ученый. — 2020. — № 20 (310). — С. 674-676. — URL: <https://moluch.ru/archive/310/69941/> (дата обращения: 27.01.2024).

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SINTAKSIS VA QO‘SHMA GAPLAR NAZARIYASI

Dehqonboyeva Mohinur Salohiddinovna

Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti talabasi

***Annotatsiya:** Maqolada tilshunosligimizga oid gap va sintaksis, qo‘shma gaplarning ahamiyati, sintaksis va qo‘shma gaplar nazariyasi ustida ish olib borgan olim va tadqiqotchilarning fikrlari hamda o‘zbek tilshunosligida ham o‘xshash va farqli jihatlarini o‘rgangan olim-u olimalarning ishlari bayon etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** sintaktika, gap, tilshunoslik, qo‘shma gap, tasnif, nazariya, vosita.*

***Abstract:** The article contains the opinions of scientists and researchers who worked on sentences and syntax, the importance of conjunctions, the theory of syntax and conjunctions, as well as the works of scholars who studied the similarities and differences in Uzbek linguistics. stated.*

***Key words:** syntax, sentence, linguistics, compound sentence, classification, theory, tool.*

Kirish.

O‘zbek tilshunosligida ham gaplar masalasi keng tadqiq qilingan. Tadqiqotchilar va olimlar o‘z munosabatini gap tasnifiga turlicha bildirgan. A.Nurmonov gapni sintaktik sathning eng kichik birligi sifatida izohlaydi. “So‘z birikmasi va boshqa sintaktik tushunchalar shu birlikning elementlari. Hozirgi hamma sintaktik nazariyalarda gap asosiy sintaktik birlik sifatida tan olinsa ham, ammo shu vaqtga qadar u o‘zining aniq bir umumiy ta’rifiga ega emas. Hozirgi kunda gapning 300dan ortiq ta’rifi mavjud. Antik davrdan XIX asrga qadar tilshunoslikda hukm surgan mantiqiy olim vakillari gapga hukm nuqtai nazaridan yondashib, so‘zlar vositasida

anglashilgan fikr deb hisoblaydilar ”¹.A.Nurmonov gapning 300 dan ortiq ta’rifi turli aspektlarga asoslanganligini ham izohlaydi: “Gapning uch yuzdan rang-barang ta’riflari uning murakkab struktura ekanligidan dalolat beradi. Ularda gapning turli qirralari asosga olinadi: sintagmatik aspekt (Tenyer asosi), nominativ aspekt (Bogdanov asosi), mantiqiy aspekt (Buslayev asosi), morfologik aspekti (Fortunatov asosi), kommunikativ aspekt va h.k.”²

Asosiy qism.

O‘zbek tili sintaksisi tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida dastlab Fitrat tomonidan “nahv” atamasi ostida o‘rganildi. Shundan so‘ng H.Qayumiy va S.Dolimov ham ikki qismli “Grammatika” asarini yozib, ikkinchi qismini “nahv” deb nomlaganlar. Gap nazariyasi ham turli tadqiqotchilar tomonidan keng o‘rganilgan. Til o‘z kommunikativ vazifasini sintaktik qurilma — gap vositasida amalga oshiradi. Tildagi barcha — fonetik, leksik, morfologik hodisa ana shu sintaktik qurilishga xizmat qiladi. Biroq bular sirasida leksika va morfologiyaning til grammatik qurilishidagi ishtiroki o‘ziga xos. Zero, har qanday sintaktik hodisada so‘z va morfologik ko‘rsatkichni ko‘ramiz. Shu boisdan sintaktik mohiyatni belgilashda leksik va morfologik omilga tayaniladi. Gap, aslida, so‘zning erkin birikuviga ham asoslanganligi tufayli so‘zning bog‘lanish qonuniyati, so‘z birikmasi ham sintaksisda o‘rganiladi. So‘z birikmalarini o‘rganish gap ta’limotining tarkibiy qismi, undan ajratilgan holda qaralishi mumkin emas. Sintaksis so‘zning har qanday birikuvini emas, balki hokim-tobelik munosabatiga kirishgan erkin nutqiy birikuvning lisoniy mohiyatini tekshiradi. Qaysidir yo‘sindagi so‘zning birikuvi bo‘lgan qo‘shma so‘z (uchburchak, ertapishar, sotib olmoq), frazeologik birlik (ilonning yog‘ini yalagan, po‘konidan yel o‘tmagan, ko‘ngli bo‘sh) sintaksisning tadqiq doirasidan chetda qoladi. Chunki ular erkin bog‘lanishga ega emas. Sintaksis atamasi grammatika atamasining o‘zi kabi ikki ma’noli: 1) tilning sintaktik qurilishi; 2) grammatikaning tarkibiy qismi.

¹Abdukhaliyeva S. SINTAKSISNING O‘RGANISH OB‘YEKTI VA GAP NAZARIYASI Innovative Development in Educational Activities ISSN: 2181-3523 VOLUME 2 | ISSUE 6 | 2023 Scientific Journal Impact Factor (SJIF): 5.938 <http://sjifactor.com/passport.php?id=22323>

² Nurmonov A. Tanlangan asarlar. –Toshkent “Akademnashr”, 2012. – B.288

Atamani ana shu ikkinchi ma'nosida qo'llab, birinchi ma'no ifodasi uchun sintaktik qurilish atamasini ishlatamiz¹.

G.Abdurahmonov bog'lovchisiz qo'shma gaplar va komponentlarning biriktiruvchi bog'lovchilar, bog'lovchisiz qo'shma gaplar va ularning komponentlarining sabab, natija, shart kabi mazmun munosabatlari, murakkab qo'shma gaplar va uning turlari bo'yicha masalalarni atroflicha talqin etdi. Professor G.Abdurahmonov qo'shma gaplar nazariyasi va ular bilan bog'liq masalalarni chuqur o'rganib, hattoki, xorij mutaxassislari e'tibor bermagan masalalarga e'tibor qaratdi. Misol tariqasida, uyushiq kesimli gaplar haqida shunday ta'rif beradi: "Sodda va qo'shma gaplarni farqlashda qiyinchilik tug'diradigan holat shundan iboratki, ba'zi bir sintaktik konstruktsiyalarning tarkibida faqat bir ega — sub'yekt bo'lishiga qaramay, qo'shma gap sanaladi, chunki bu xil konstruktsiyani tashkil etgan qismlarning ham Grammatik, ham semantik jihatdan o'ziga mustaqil ekanligi ko'rinib turadi; bu xil konstruktsiyani tashkil etgan qismlarning har biri ma'lum fikr tugalligini ifodalaydi, ularning predikativlik va modallik xususiyatlari bo'ladi". Qo'shma gaplarning o'rganilishi L.Asqarovaning ishlarida qo'shma gaplarning o'rganilishi davom ettirildi. Olima qo'shma gaplarni bog'langan, ergashgan, bog'lovchisiz kabi turlarga ajratadi. G.Abdurahmonov tomonidan tavsiya berilgan qo'shma gaplarning turlarini qiyoslab va chog'ishtirib o'rgandi. Shuningek, A.Berdaliyev qo'shma gaplar sintaksisi sohasiga tizimli tilshunoslikning o'xshashlik (paradigmatika), sintaktik ziddiyatlar (oppozitsiya) kabi tushunchalarni olib kirdi². R.Sayfullayeva o'z tadqiqotlarida qo'shma gaplarni substantsial jihatdan talqin etgan. Hozirgi kunda qo'shma gaplar nazariyasi keng o'rganilmoqda. Jumladan, professor G.Hoshimov qo'shma gaplarni hajm jihatdan tadqiq qilish alohida ahamiyatga egaligini ifodalaydi. Olim qo'shma gaplarni quyidagi turlarga bo'lib chiqadi: politaksema o'z navbatida kollotaksema (collotaxeme), parataksema (parataxeme), gipotaksema (hypotaxeme), gipertaksema

¹ Абдухалимова, С. У. О'zbek tilshunosligida sintaksis va qo'shma gaplar nazariyasi / С. У. Абдухалимова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 20 (310). — С. 674-676. — URL: <https://moluch.ru/archive/310/69941/> (дата обращения: 27.01.2024).

² Sayfullayeva R. Hozirgi o'zbek tilida qo'shma gaplarning substantsional (zotiy) talqini. — Toshkent. "Fan", 2007.— B.19.

(hypertaxeme), supertaksema (supertaxeme), ultrotaksema (ultrataxeme), arxitaksema (architaxeme), sinkrotaksema (syncrotaxeme) larga bo‘linadi¹.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida xulosa xulosa yasas ekanmiz ,o‘zbek tilshunosligida so‘zlarning bog‘lanishi tuzilish strukturasi ko‘ra, sintaktik munosabatga kirishishiga ko‘ra, ba’zi shakllarda so‘zga, ba’zi o‘rinlarda gapga tenglanishiga ko‘ra murakkab tuzilma hisoblanadi. Ular uchun ayni bir qolipni belgilab olish qiyin hisoblanadi. Shuningdek, sintaktik bog‘li aloqlar tarkibida o‘rganilayotgan nomli birikmalarni ham qayta ko‘rib chiqish zaruriyat paydo bo‘ladi.. Bir so‘z bilan aytganda, so‘z sintaktik aloqlari tasnifi va uni o‘rganish masalasi bugungi kunda o‘z ahamiyatini yo‘tmaydi.

REFERENCES

1. Абдухалимова, С. У. О‘zbek tilshunosligida sintaksis va qo‘shma gaplar nazariyasi Молодой ученый. — 2020. — № 20 (310). — С. 674-676. <https://moluch.ru/archive/310/69941/> (дата обращения: 27.01.2024).
2. Arabboyeva Mahfuza Akramjonovna “Ona tili darslari orqali o‘quvchilarning ijtimoiy –emotsional-fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish” Zamonaviy ta’lim. Toshkent 2022/ 12 43-47
3. Abdukhalimova S. SINTAKSISNING O‘RGANISH OB‘YEKTI VA GAP NAZARIYASI Innovative Development in Educational Activities ISSN: 2181-3523 VOLUME 2 | ISSUE 6 | 2023 Scientific Journal Impact Factor (SJIF): 5.938 <http://sjifactor.com/passport.php?id=22323>
4. Хошимов. Г. М. Типология сложных предложений разносистемных языков.– Т. «Фан», 1991-С.105
5. Sayfullayeva R. Hozirgi o‘zbek tilida qo‘shma gaplarning substantsional (zotiy) talqini. — Toshkent. “Fan”,
6. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. –Toshkent “Akademnashr”, 2012. – B.288

¹ Хошимов. Г. М. Типология сложных предложений разносистемных языков.– Т. «Фан», 1991-С.105

SINTAKSISDA QO‘SHMA GAPLAR

Jo‘raboyeva Durdona

Andijon davlat pedagogika instituti

Filologiya fakulteti talabasi

***Annotatsiya:** Maqolada tilshunosligimizdagi sintaksis bo‘limining o‘rni, qo‘shma gaplarning tuzilishi hamda turlari haqida so‘z yuritilgan va misollar yordamida sintaktik tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** sintaktika, gap, tilshunoslik, qo‘shma gap, tasnif, nazariya, vosita, til birliklari, fonema, nutq*

***Abstract:** The article talks about the role of the syntax department in our linguistics, the structure and types of compound sentences, and syntactic analysis with the help of examples.*

***Key words:** syntax, sentence, linguistics, compound sentence, classification, theory, tool, language units, phoneme, speech.*

Kirish.

Ma‘lumki, til birliklari o‘z ichki tabiatiga ko‘ra doim o‘zidan katta birliklar sathida sintaktis faollik kasb etadi, ya‘ni fonema morfema yoki so‘z sathida, morfema so‘z sathida, so‘z gap qolipida, gap esa matn doirasida nutqiy faollikka ega bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, hozircha sintaksisda, umuman matn tilshunosligida qo‘llanilib kelgan “qo‘shma gap” terminining ma‘lum darajada izohtalab ekanidan dalolat beradi. Gap shundaki, qo‘shma gap deyilganda gapning o‘sha gap ichida sintaktik faollik kasb etayotganidek tasavvur uyg‘otadi. Bu esa til birliklarining pog‘onali munosabati qoidasining qo‘pol ravishda buzilishiga olib keladi. Masalaning bu tahlitda hal etib kelinayotgani noto‘g‘ri ekanligi tilshunoslar alohida ta‘kidlab kelmoqdalar. Masalan, M.V.Lyaponning fikricha, “Qo‘shma gap ikki yoki undan ortiq nisbiy tugallangan

(kommunikativ ma'noli) xabar parchalarini tashkil etuvchi gaplarning o'zaro ongli ravishdagi birikuvi natijasini taqozo etar ekan, uning strukturasida matnga xos jiddiy belgilar mavjudligidan kelib chiqmog'imiz va buni e'tirof etmog'imiz lozim"¹.

Bunday fikr va mulohazalar prof.N.Turniyozov va uning shogirdlari tomonidan ham aytilmoqda. Masalan: "Tilshunoslikda azaldan qo'llanilib kelayotgan "qo'shma gap" terminini maqsadga muvofiq deb bo'lmaydi. Chunki qo'shma gap deganimizda, birinchidan, gaplarning qo'shilayotganini (birikayotganini) tushunsak, ikkinchidan, yangi murakkab tuzilishli qurilmaning hosil qilinishini ham anglaymiz. Bunday murakkab qurilma matn tushunchasi bilan tenglashadi"².

Asosiy qism.

Qo'shma gap sodda gaplar bilan mustahkam bog'langan, biroq undan ham struktur, ham uzatilayotgan axborot nuqtai nazaridan farqlanuvchi sintaktik qurilma hisoblanadi. Shu bois qo'shma gapning umumiy lisoniy mohiyati uning sodda gaplarga o'zaro munosabatida ochiladi. Lisoniy struktura jihatidan qo'shma gapning sodda gapdan farqi ma'lum darajada ravshan. Aniqrog'i, sodda gapda shakllangan kesim bitta bo'lsa, qo'shma gapda u birdan ortiq bo'ladi va birdan ortiq sodda gaplarning mazmun, hamda, grammatik jihatdan birikuvidan tashkil topadi. Misollar:

1. Men sizni bilaman, siz bunday qilmaysiz. (O.)
2. Nima qilasan, qishloqqa qaytasanmi? (O).
3. Dunyoda nima ko'p - kulgu ko'p. (O).
4. Bilamanki, sodda barmoqlaring tilla uzuk taqmagan. (U.)

5. Majlisda ko'riladigan masalalarning muhim tomoni shundaki, Baqa qurilmadagi cho'l yerlarni suvga serob qilish masalasi muxokama qilinadi. Ko'rinadiki, 1-gapda bilaman va qilmaysiz, 2-gapda qilasan va qaytasanmi, 3-gapda ko'p va ko'p, 4-gapda bilaman va taqmagan, 5-gapda shundaki va muhokama qilinadi kabi har bir gapdagi birdan ortiq kesim sintaktik qurilmalarning qo'shma gapligini ta'minlovchi muhim asoslardan biridir. Kesimlarning birdan ortiqligidan tashqari, har

¹ Ляпон М.В. Смысловая структура сложного предложения и текст. – М.: Наука, 1983. – С. 8.

² Турниёзов Н., Турниёзова К. Функционал синтаксисга кириш. – Тошкент: Фан, 2003. – Б. 89.

bir qo'shma gapda ifodalanayotgan birdan ortiq fikr, axborotning o'zaro zich munosabati, gaplararo grammatik taqoza etuvchilik hamda intonatsion yaxlitlik kabilar ham bu sintaktik qurilmalarning qo'shma gapligini ta'minlaydi. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar alohida olingan sodda gaplardan nisbatan mustaqil emasligi bilan ajralib turadi¹. Avvalo, bu grammatik va intonatsion nomustaqillikdir. Bahor keldi, shuning uchun dala ishlari qizib ketdi qurilmasini ergash gapli qo'shma gap qilib turgan narsa mazmuniy taqoza etuvchanlikdir. Birinchi gapdagi mazmun ikkinchi gapdagi mazmun uchun sabab maqomidir. Biroq bunday mazmuniy zich bog'lanishsiz ham qo'shma gap hosil bo'lishi mumkin. Osmonda turnalarning «qurey-qureyi» eshitilardi, uzoqlardan chuponlarning hay-haylagani quloqqa chalinardi. Ikkinchidan, shuning uchun bog'lovchisi qo'shma gap a'zolarini grammatik jihatdan zich munosabatga kiritgan. (Biroq bu bog'lovchisiz ham qo'shma gap hosil qilish mumkin: Bahor keldi, dala ishlari qizib ketdi.) Ammo sodda gaplar orasidagi intonatsion uzilish qo'shma gapni sodda gapga parchalab yuborishi mumkin: Bahor keldi, shuning uchun dala ishlari qizib ketdi. Qo'shma gaplar tarkibiga kiruvchi sodda gaplar orasida teng yoki tobe sintaktik aloqa mavjud bo'ladi. Agar u teng bog'lovchi yordamida amalga oshirilgan bo'lsa, tenglanish deyiladi. 1. O'g'lim keldi va tuyni boshlab yubordik. 2. Bahor keldi va dala ishlari qizib ketdi. To'g'ri, gaplar orasida sabab-oqibat aloqasi mavjud va gapni mazmunan tobe-hokim gaplarga kiritish mumkin. Biroq gaplarda mazmunan tobelik, shaklan tenglik mavjud bo'lganda, grammatik jihatdan nisbiy yakunlangan bo'ladi.

XULOSA

Qo'shma gaplarning har biri nisbiy xabar ifodasini berishga qodir ekan, bunday qurilmalarni matn xarakteriga ega deyish mumkin. Shuning uchun ularni mikromatn tarzida, ya'ni kichik matn tarzida o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bundan ko'rinadiki, mamlakatimizda matn tilshunosligida sohasida, jumladan matn va murakkab sintaktik qurilma maqomining o'zaro munosabatini o'rganish sohasida qator muammolar

³ Абдухалимова, С. У. О'zbek tilshunosligida sintaksis va qo'shma gaplar nazariyasi Молодой ученый. — 2020. — № 20 (310). — С. 674-676. <https://moluch.ru/archive/310/69941/> (дата обращения: 27.01.2024).

mavjud bo‘lib, Samarqandda prof.N.Turniyozov tomonidan asoslangan matn derivatsiyasi muammolarini tadqiq etish ilmiy maktabi bu sohada bir qator xayrli ishlarni amalga oshirmoqda. Yaqinda Samarqandda “Til taraqqiyotining derivatsion qonuniyatlari”, “Sistem-struktur tilshunoslik muammolari”, “Til sistemasi va hozirgi zamon lingvodidaktikasi” mavzularidagi respublika ilmiy-nazariy anjumanlarining o‘tkazilishi hamda “Struktur sintaksis asoslari” nomli monografiyaning nashr etilishi fikrimizning yorqin dalili bo‘la oladi.

REFERENCES

1. Абдухалимова, С. У. О‘zbek tilshunosligida sintaksis va qo‘shma gaplar nazariyasi Молодой ученый. — 2020. — № 20 (310). — С. 674-676. <https://moluch.ru/archive/310/69941/> (дата обращения: 27.01.2024).
2. Arabboyeva Mahfuza Akramjonovna “Ona tili darslari orqali o‘quvchilarning ijtimoiy –emotsional-fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish” Zamonaviy ta’lim. Toshkent 2022/ 12 43-47
3. Abdukhalimova S. SINTAKSISNING O‘RGANISH OB‘YEKTI VA GAP NAZARIYASI Innovative Development in Educational Activities ISSN: 2181-3523 VOLUME 2 | ISSUE 6 | 2023 Scientific Journal Impact Factor (SJIF): 5.938 <http://sjifactor.com/passport.php?id=22323>
4. Ляпон М.В. Смысловая структура сложного предложения и текст. – М.: Наука, 1983. – С. 8.
5. Sayfullayeva R. Hozirgi o‘zbek tilida qo‘shma gaplarning substantsional (zotiy) talqini. — Toshkent. “Fan”,
6. Турниёзов Н., Турниёзова К. Функционал синтаксисга кириш. – Тошкент: Фан, 2003. – Б. 89.

O‘ZBEK TILI LEKSIKASIDA ESKIRISH VA

YANGILANISH JARAYONI

Mahkamova Sevinch

Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti talabasi

***Annotatsiya:** Maqolada yurtimizda o'zbek tiliga qaratilayotgan e'tibor, tilimizdagi eskirish va yangilanish jarayonlari, ularning sabab va omillari haqida atroflicha fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** leksikologiya, yangilanish jarayoni, eskilanish jarayoni, taraqqiyot, arxaizm, neologizm, neytralizm.*

***Abstract:** In the article, the attention paid to the Uzbek language in our country, the processes of obsolescence and renewal in our language, their causes and factors are discussed in detail.*

***Key words:** lexicology, renewal process, aging process, development, archaism, neologism, neutralism.*

Kirish.

So'nggi yillarda yurtimizda barcha sohalar singari o'zbek tilining nufuzini oshirish borasida ham ko'plab ishlar amalga oshirilmoda. Jumladan; «ona tilimiz»ga bo'lgan e'tibor yanada kuchaytiriladi. Bu haqda Prezident Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 20 dekabr, seshanba kuni mamlakat parlamentiga yo'llagan Murojaanomasida aytib o'tdi. Davlat rahbari ta'lim sohasida qilinishi kerak bo'lgan va qilinadigan ishlar haqida ma'lumot berarkan, «ma'naviyatimiz asosi bo'lgan ona tilimiz» (o'zbek tili) haqida ham to'xtalib o'tdi.

«Milliy o'zligimizning timsoli bo'lgan, ma'naviyatimiz asosi bo'lgan ona tilimizga e'tibor yanada kuchaytiriladi. Albatta, oilamizda ham chet tilini bilish albatta kerak, bu ham hozir zamon talabi. **Lekin ona tilini bilishga majbur qilishimiz kerak. Majbur!**», — dedi prezident. Shavkat Mirziyoyevning so'zlariga ko'ra, «mening

farzandim chet tillarini biladiyu, ona tilini bilmaydi, degan gap Yangi O‘zbekistonga ma’qul emas». «Chet tilini bilishi kerak, lekin ona tilini bilishga majbur», — deya qo‘shimcha qildi prezident.

Asosiy qism.

O‘zbek tilining taraqqiyoti prosessida uning barcha sohalarida ma’lum o‘zgarishlar yuz berdi. Bunday o‘zgarishlar ayniqsa, uning leksikasi uchun juda harakterli hisoblanadi. Bunda, birinchidan, tildagi ayrim so‘zlarning eskirishi, istemoldan chiqib ketishi kuzatilsa, ikkinchidan, tilda yangi so‘zlarni paydo bo‘lishi kuzatiladi. Bu ikkala hodisa ham tildagi ma’lum ob’ektiv sabablar asosida ro‘y beradi. Hozirgi adabiy til nuqtayi nazaridan eskirgan so‘zlarning jami eski qatlam (eski leksika) , yangi so‘zlarning jami yangi qatlam (yangi leksika) deyiladi. Na eskilik, na yangilik bo‘yog‘iga ega bo‘lgan so‘zlar betaraf leksika (o‘tgan asrning ikkinchi yarimidan keyin, bu qatlam zamonaviy leksika deb yuritilgan). Demak, faol yoki nofaol, umumiste’mol yoki qo‘llanilish doirasi chegaralangan bo‘lishidan qat’i nazar, eskilik va tilimizga mansub barcha yangilik bo‘yog‘iga ega bo‘lmagan leksema hozirgi o‘zbek tilining betaraf leksikasidir. Huddi shu qatlamni zamonaviy qatlam sifatida qabul qilgan professor SH.Shoabdurahmonov ham eskilik yoki yangilik bo‘yog‘iga ega bo‘lmagan so‘zlar zamonaviy leksikani (zamonaviy qatlamni) tashkil etishi haqida fikr yuritgan¹. Eskirgan leksika. Eski qatlamga oid leksemalar o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra ikki turga bo‘linadi: 1)tarixiy leksema; 2) arxaik leksema. Tarixiy leksemalar hozirgi kunda yo‘q, narsa- hodisalarni bildiruvchi so‘zlardir. Ma’lum davrlarda bor bo‘lgan, ayrim narsa- hodisalar jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida yo‘q bo‘lishi, o‘tmish hodisasiga aylanishi mumkin. Shu bilan bog‘liq holda bunday narsa - hodisalarning atamasi bo‘lgan so‘zlar ham tarixiylik kasb etadi, tarixiy so‘zga aylanadi. Misol uchun: Qozi, zobit, omoch, kuloch, qul, cho‘ri, baqqol, xon, bek kabi. Tarixiy leksemalar bildiradigon narsahodisalar tarixiyliigi sababli ularning ko‘pchiligi (ularning ma’nosi) hozirgi davr kishisi uchun noma’lum bo‘ladi.

¹ Pratoval G. "TARIXIYLIK JIHATIDAN O‘ZBEK TILI LEKSIKASI" SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 3 | ISSUE 3 | 2022 ISSN: 2181-1601

Tarixiy leksema hozirgi o'zbek tilida ham zarurat taqozosiga ko'ra qo'llaniladi. Xususan, tarixga oid ilmiy asar va darsliklarda, o'tmish voqealarini aks ettiruvchi badiiy asarlarda bunday leksemalar cheklanmagan miqdorda qo'llanilishi mumkin. Misollar: Dehqonlarning hisobiga ko'ra, bug'doylar besh botmon chiqishi kerak edi. (S.Ayn), Qozi Yunus barchasini xalqqa yaxshi bo'lishi uchun qilgandi.(Y.E). Bundan tashqari, ba'zi polesemantik leksemalarning ba'zi ma'nolari tarixiylashib, boshqa ma'nosi umumiste'molda bo'lishi mumkin. Masalan: millat leksemasini bir nechta semalarini shu asnoda kuzatish mumkin. 1. Yoshlar, keksalar, qizlar, juvonlar orasida turli millat vakillari – qozoq, qirg'iz, arman va yahudiylar ham ko'rinar edilar (P. Trus). 2. Millatingni ayt: Ibrohim Xalilulloh millati. („Diniy rivoyatlardan”). Yuqoridagi birinchi gapda millat leksemasining „tarixan tashkil topgan madaniyati, tili, huquqi, iqtisodiy hayoti va ruhiy xususiyatlarining umumiyligi asosida vujudga kelgan kishilar guruhi” semasi voqelangan bo'lib, ushbu so'z neytral leksika tarkibida mana shu semasi bilan yashasa, ikkinchi gapda unung „ biror dinga mansublik” tarixiy sememasi voqelanganligi bevosita kuzatiladi. Bundan ko'rinadiki, ko'p sememali so'zlarning biri eskirib, ikkinchisi yashovchan bo'lishi ham mumkin ekan. Arxaizmlar bir so'z bilan aytganda o'z o'rnini boshqa leksemaga bo'shatib bergan birliklardir. Ijtimoiy taraqqiyot natijasida ayrim narsa – hodisa boshqa leksema bilan atalib, avvalgilari iste'moldan chiqib ketadi. Misollar: ulus (xalq), aeroport (tayyoragoh), samaliyot (tayyora), tilmoch (tarjimon), lang (cho'loq), ilik (qo'l) va b.¹

Yangi leksika. Yangi qatlamga oid bo'lgan so'zlar, tilda yangi paydo bo'lgan va yangilik bo'yog'i sezilib turgan leksemalardir. Bunday so'zlar ilmiy termin bilan , ya'ni neologizm deb yuritiladi. Neologizmlar umuman yangi davrda paydo bo'lgan so'zlar sifatida tushunilmasligi kerak. Biror so'zni neologizm deb hisoblashda uning yangilik bo'yog'iga egaligi asosga olinadi. Misol uchun: Fazogir, kitobsevarlar, oltintoparlar va sh.k. Yangi leksika semalarning tasnifiga ikkiga bo'linadi: a) Sof yangi leksemalar tilimiz uchun, aslida, mutlaqo begona, lekin unga endigina kirib kelib, iste'molga joylashgan boshqa tilga xos leksik birliklar (lizing, test, internet va b.). Bu

¹ Sayfullayeva.R. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2020. 117-121- betlar

qatlarga oid soʻzlarni, asosan, turli sohalarga tegishli boʻlgan terminlarda koʻp uchratamiz. Yangi leksemalar davrlar oʻtib neytral(bartaraf) leksikaga oʻtib ketadi. Misol uchun: Televidenya soʻzi asli yangi qatlarga oid soʻz hisoblansada, lekin hozirgi paytda neytral qatlarga mansub soʻzga aylangan. b) Faollashgan leksema yangi leksikaning turlaridan boʻlib, ular umumisteʼmol doirasidan chiqib ketgan va hozirgi kunda qayta ishlatila boshlagan soʻzlar(hokim, viloyat, oqsoqol) kabi leksemalardir¹.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida, eski qatlarga oid boʻlgan soʻzlarning semantik tasniflanishi, hozirgi davr kishisi uchun yot, tushunarsiz boʻlgan soʻzlarga yanada oydinlik kiritishga asos boladi². Tarixiylik jihatidan oʻzbek tili leksikasini oʻrganish hamisha dolzarb boʻlgan, jamiyatda boʻlayotgan turli voqea- hodisalarni oʻrganishda, albatta, tarixga nazar tashlanadi va aloqa almashinuvida oʻsha davrda foydalanilgan lugʻat sostavi (leksik birlik)lari muhim ahamiyat kasb etadi, shu bilan bir qatorda tarixiy, badiiy asarlarni oʻqish mobaynida toʻlaqonli ravishda tushunib yetish uchun tarixiy leksemalar, arxaizmlar muhim roʻl oʻynaydi.

REFERENCES

1. Sayfullayeva.R. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent, 2020. 117-121- betlar
2. Mengaliyev.B, Raupova.L, Qurbonova.M. Leksikologiya. Toshkent. 2020
3. Qurbonova.M. hozirgi zamon oʻzbek tili. Toshkent. 2000. 3-5- betlar.
4. Prato G. “TARIXIYLIK JIHATIDAN OʻZBEK TILI LEKSIKASI” SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 3 | ISSUE 3 | 2022 ISSN: 2181-1601
5. Arabboyeva M. A. “Ona tili darslari orqali oʻquvchilrning ijtimoiy –emotsinoal-fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish” Zamonaviy taʼlim. Toshkent 2022/ 12 43-47
6. Arabboyeva Mahfuza Akramjonovna “Ona tili darslarini milliy dastur talablari asosida tashkil etish dolzarb pedagogik muammo sifatida” Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2023/7 718-725

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING KOʻCHMA MAʼNOGA ASOSLANISHI

¹ Mengaliyev.B, Raupova.L, Qurbonova.M. Leksikologiya. Toshkent. 2020

² Qurbonova.M. hozirgi zamon oʻzbek tili. Toshkent. 2000. 3-5- betlar.

Qo‘chqorova Sarvinoz Kamoliddin qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti talabasi

***Annotatsiya:** Maqolada frazeologik birliklarning tilimizdagi ahamiyati va nutqiy jarayonlarda frazeologik birliklarning ko‘chma ma‘noda qo‘llanish jarayonlari haqida so‘z yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** frazeologiya, nutqiy faoliyat, ko‘chma ma‘no, mantiq, so‘zlashuv.*

***Abstract:** The article talks about the importance of phraseological units in our language and the processes of figurative use of phraseological units in speech processes.*

***Key words:** phraseology, speech activity, figurative meaning, logic, conversation.*

Kirish.

Tilimizning naqadar keng ko‘lamli ekanligi va boyligini isbotlovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri bu frazeologizmlardir. Frazeologizmlar va frazeologik birliklarning o‘ziga xosligini isbotlovchi ko‘plab ilmiy ishlar, monografiyalar, o‘quv qo‘llanmalar, darsliklar yaratilgan bo‘lishiga qaramasdan hali ushbu sohada qilinishi zarur bo‘lgan ilmiy-amaliy ishlar va yechilishi kerak bo‘lgan ko‘plab muammolar mavjud. Kelgusida ushbu yo‘nalishda bajariladigan dissertatsiyalarning ham salmog‘ining ortib borishi ham frazeologizmlar yo‘nalishida yangi bosqichni boshlab beradi debocha bo‘lishi shubhasizdir.

Asosiy qism.

O‘zbek tilida ham frazeologizmlarga nisbatan asosan ibora so‘zi ishlatiladi. Xususan Shavkat Rahmatullayevning o‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘atida ham ibora deb aytiladi va asosan fe‘lli birikmalar keltiriladi. Anqoning urug‘i- topilishi qiyin bo‘lgan narsa bo‘lib, anqo faqatgina rivoyatlarda keltirilgan mevadir. Bag‘ri tosh-bemehr, iltifoti yo‘q Do‘ppisi yarimta- beg‘am, beparvo Ko‘z qorachig‘i- yakkayu

yagona va qadr qiymati yuksak¹. Misollardan ko‘rinib turibdiki, mening fikrimcha, o‘zbek tilida idiomalarni yarim motivatsiyalangan deb olsak bo‘ladi. Chunki uning ma‘nosini so‘zlarning o‘zini ma‘nosidan kelib chiqib tushunish mumkin, ma‘nosi butunlay boshqa narsaga ko‘chmagan. Shuningdek ingliz tilidan iboralarni tarjima qilishda ham aynan ekvivalentini topish qiyin. Umuman har bir frazaning kelib chiqishi, foydalanilishi o‘sha til millatining madaniyatiga bog‘liq bo‘ladi. Frazologizmlar xalq boyligi bo‘lganligi sababli ham uning manbalari u yoki bu xalq yashayotgan joyining tabiati, iqtisodiy tuzumi, tarixi, madaniyati, hayot tarzi, og‘zaki ijodiyoti, badiiy adabiyoti, san‘ati, fani, urf-odati kabilar bilan chambarchas bog‘lanadi. O‘zbek tili leksikasida mavjud frazemalarning deyarli hammasi lingvokulturologik xususiyatga ega. Chunki Masalan, “Qo‘li ochiq” frazemasini saxiy ma‘nosida qo‘llanuvchi belgi bildiruvchi frazema bo‘lib, aynan tanti va mehmondo‘st xalqimizning vakillariga nisbatan ishlatiladi. Yoxud “Do‘ppisini osmonga otmoq” iborasini oladigan bo‘lsak, uning aytilishi va eshutilishiyoq ko‘z o‘ngimizda o‘zbek xalqini va uning samimiy, sodda, tanti bir vakilining xushchaqchoq qiyofasini gavdalantiradi. “Qo‘y o‘gzidan cho‘p olmagan”² – nihoyat darajada beozor, mo‘min iborasi fe‘l-atvor bildiruvchi frazema bo‘lib, yuvosh, xushfe‘l insonlarga nisbatan ishlatiladi. Ha, shunaqangi dog‘uli edi u, yiqiladigan joyiga oldindan ko‘rpa to‘shab qo‘yar, ishigayam, so‘zigayam hamisha birovlarini qalqon qilardi, o‘zi qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan, buzoqning haqi bor deb sigirning sutini ichmaydigan faqir. (A.Yo‘ldoshev, Puankare). Xalqimiz turmush tarzida azaldan chorvadorlik ishi muhim o‘rin tutgan. Iborada aynan yuvosh jonivor qo‘y obrazining keltirilganligi ham mana shu omilga bog‘liq. Umuman, lingvokulturologiyada frazeologizmlar:

❖ Muayyan til tabiatiga xos milliy realiyalarni aniqlash (bosh-oyoq sarpo, do‘ppisini osmonga otdi, ko‘rpa qarang oyoq uzatmoq, xamir uchidan patir, to‘nini teskari kiyib olmoq va hokazo);

¹ Shavkat Rahmatullayev. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – T.: O‘qituvchi. 1978

² Mamatov A. Antonimiya asosida frazeologik shakllanish masalalari. // O‘zbek tili va adabiyoti. O‘zFAN., T., 1998.

- ❖ Fikrni obrazli ifodalash (do‘ppisi yarimta, ko‘ngli tog‘day ko‘tarildi, ko‘zini yog‘ bosgan, yog‘ tushsa yalaguday...);
- ❖ So‘zlovchi shaxs dunyoqarashini ko‘rsatish (qo‘yday yuvosh, itday qaysar, quyonyurak, bag‘ritosh, yuzi shuvut...);
- ❖ Muayyan mentalitet-millatga xos hududiy, madaniy, ijtimoiy, diniy o‘ziga xos voqea-hodisalarga, shaxslarga ishora (Almisoqdan qolgan, qiyomat qarz, oqposhshoning laychasi, afandiga ulfatbashara, daqqiyunusdan qolgan, alifni kaltak deyolmaslik...);
- ❖ Jonli muloqot muhitini shakllantirish kabi maqsadlarga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida, har bir til frazeologizmlar bilan rang-barang va boydir. Ularni kundalik hayotda qo‘llash nutqimizni yanayam chiroyli va ravon qiladi. Yuqorida ko‘rib chiqilgan frazeologik birikmalarning tahlilidan shunday deyish mumkinki, Frazeologiyani tilshunoslikning bir bo‘limi sifatida emas, mustaqil fan tariqasida o‘rganilishi kerak. Barcha tillardagi frazeologik birikmalar, xususan o‘zbek tilidagi frazeologik birikmalar ham, millatning donishmandligi ko‘rsatuvchi xalq ijodi sanaladi.

REFERENCES

1. Mamatov A. Antonimiya asosida frazeologik shakllanish masalalari. // O‘zbek tili va adabiyoti. O‘zFAN., T., 1998.
2. Shavkat Rahmatullayev. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – T.: O‘qituvchi. 1978
3. Arabboyeva M. A. “Ona tili darslari orqali o‘quvchilarning ijtimoiy – emotsional-fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish” Zamonaviy ta’lim. Toshkent 2022/ 12 43-47
4. Arabboyeva Mahfuza Akramjonovna “Ona tili darslarini milliy dastur talablari asosida tashkil etish dolzarb pedagogik muammo sifatida” Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2023/7 718-725
5. Qodirova M O‘zbek tilshunosligida frazeologizmlarning o‘rganilishi jarayonlari Science And Innovation International Scientific Journal 2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337

LEKSEMALARNING ISHLATILISH DOIRASI. DIALEKTIZMLAR

Qo'chqorova Kamola Akmaljon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti talabasi

***Annotatsiya:** Maqolada leksemalarning tilimizdagi ahamiyati va ishlatilish cheraqaralari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Dialektizm jarayonlari va turlari atroflicha o'rganilgan.*

***Kalit so'zlar:** leksema, gap, tilshunoslik, dialektizm, tasnif, nazariya, vosita, til, zamonaviy, lug'at, adabiy til.*

***Abstract:** The article provides detailed information about the importance of lexemes in our language and the limits of their use. Processes and types of dialectics have been thoroughly studied.*

***Key words:** lexeme, speech, linguistics, dialectism, classification, theory, tool, language, modern, dictionary, literary language.*

Kirish.

Har bir millatning o'z ona tili va shu mamlakat xalqi uchun tushunarli bo'lgan adabiy til me'yorlari mavjudir. Bu til me'yorlarini esa shevalar va lug'atlardan tashkil etadi. Asrlar davomida sayqallanib, avlodlardan avloddalarga meros bo'lib kelmoqda.

Til, ayniqsa uning lug'ati doim o'sish-o'zgarishda. Bunday o'sish-o'zgarish tez va uzil-kesil sodir bo'lmaydi. Shu sababli zamoniyligi jihatidan har xil birliklar yonmayon yashab turadi. Lug'at boyligida zamoniyligi jihatidan ikki asosiy qatlam mavjud: zamonaviy qatlam va zamondosh qatlam. Zamonaviy qatlamga bugungi til amaliyotida odatdagi, rasmona deb qaraluvchi leksemalar kiritiladi¹. Bu qatlamdagi leksemalar na yangilik va na eskilik bo'yog'iga ega bo'lmaydi. Leksemalarning ko'pchiligi – xuddi shunday. Zamonaviy qatlamga mansub deb belgilashda leksemaning yakka shaxslar nutqidagi mavqei emas, balki umumtildagi mavqei asosga olinadi. Leksemani zamonaviy qatlamga kiritishda ularning nutqda ishlatilish miqdori ham asosga olinmaydi. Nutqda ko'p ishlatiladigan leksema odatda zamonaviy qatlamga mansub bo'ladi. Zamonaviy qatlamga, bulardan tashqari, nutqda oz ishlatiladigan leksemalar

¹Rahmatullayev Shavkat "Hozirgi adabiy o'zbek tili" (darslik) "Universitet" nashriyoti. Toshkent – 2016

ham kiritiladi¹. Leksemlarning ishlatilish chegaralari haqida so‘z yuritganimizda dialektizmlarga to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

Asosiy qism.

Leksemalar singari dialektizm ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Dialektizm deb belgilanuvchi birlik adabiy tilda (shuningdek boshqa dialektlarda ham) umuman yo‘q bo‘lishi yoki o‘z leksik ma’nosida, leksik ma’nosining tarmoqlanishida, baho semasida va boshqa jihatlarida farqlanib turishi kerak. Leksik dialektizm ikki turli bo‘ladi: a) dialektizm-leksema, b) dialektizmsemema. Faqat shu dialektida-gina ishlatilsa-yu, adabiy tilda yo‘q bo‘lsa, dialektizm-leksema deyiladi. Bunday leksema lug‘aviy birlik sifatida adabiy til uchun bus-butun yangi, noma’lum bo‘ladi. Masalan, xamak-, sapcha-, balacha-, tugunak- (tuynak-) leksemalaridan har biri boshqa-boshqa dialektniki, bulardan birortasi ham adabiy tilga qabul qilinmagan. Hozirgacha har bir territoriyada shu predmet o‘z leksemasi bilan anglatiladi. Xuddi shuningdek holat narvon-, shoti-, zangi- leksemalariga ham xos. Lekin bu misoldagi birinchi leksema, har holda, adabiy tilga olingan deb qaraladi (Markaz joylashgan dialektning leksemasi ekanligi bilan izohlansa kerak). Demak, dialektlardan biriniki bo‘lgan leksema adabiy tilga xos leksemaga aylanadi, qolganlari dealektizmligicha turadi. Dialektga xos leksema adabiy tilga ba’zan yakka o‘zi emas, balki turg‘un birikma tarkibida kirib kelishi mumkin. Masalan, shiypon- leksemasi adabiy tilga dala shiyponi- turg‘un birikmasi tarkibida o‘tdi. Ba’zi hollarda biror dialektidagi leksema boshqa dialektidagi leksema bilan yoki adabiy tildagi leksema bilan ifoda jihatiga ko‘ra bir xil bo‘ladi-yu, mazmun jihatiga ko‘ra farqlanib turadi. Buni dialektizm-semema deyiladi. Masalan, pashsha- - chivin-, chivin- - pashsha-, lagan- - tovoq-, tovoq- - lagan- leksemalarida bo‘lgani kabi. Bu yerda ayni bir leksik ma’no har xil dialektida boshqa-boshqa leksemaning lug‘aviy mundarijasini tashkil qiladi: ruscha muxa bir dialektida pashsha-deyilsa, boshqa bir dialektida chivin- deyiladi; aksincha, ruscha komar avvalgi dialektida chivin- deyilsa, keyingi dialektida pashsha- deyiladi va b. Bu yerda leksemalar go‘yo o‘rin almashib qolgandek bo‘ladi. Dialektlarga ko‘ra ba’zan leksemalarning ma’no

¹ Rahmatullayev Shavkat "Hozirgi adabiy o‘zbek tili" (darslik) "Universitet" nashriyoti. Toshkent – 2016

hajmida ham farq mavjud bo‘ladi¹. Buni dialektizm-sememaning bir ko‘rinishi deb baholash kerak.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan fikrlar shuni ko‘rsatadiki, leksemalarning zamoniyligini aktiv-passiv qatlamlar deb nomlash va tavsiflash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Aktiv-passivlik lug‘at boyligiga boshqa jihatdan – miqdoriy jihatdan yondashish bo‘lib, lug‘at boyligini bunday o‘rganish ham, albatta, muhim amaliy va nazariy xulosalarga olib keladi. Yangilik yoki eskilik bo‘yog‘i bor leksemalar lug‘at boyligining zamondosh qatlamini tashkil qiladi. Bunday qatlam tilning har bir taraqqiyot bosqichida mavjud bo‘ladi, chunki lug‘at boyligi doim o‘sib-o‘zgarib turadi. Shu sababli lug‘at boyligida zamondosh qatlam ham yashaydi. Zamondosh qatlamda o‘zaro biri ikkinchisining aksi bo‘lgan hodisalar mavjud: yangilik bo‘yog‘i bor leksemalar va eskilik bo‘yog‘i bor leksemalar.

REFERENCES

1. Rahmatullayev Shavkat “Hozirgi adabiy o‘zbek tili” (darslik) "Universitet" nashriyoti. Toshkent – 2016
2. Arabboyeva Mahfuza Akramjonovna “Ona tili darslari orqali o‘quvchilarning ijtimoiy –emotsional-fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish” Zamonaviy ta’lim. Toshkent 2022/ 12 43-47
3. Ne‘matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. "O‘qituvchi", T.: 1995.
4. Arabboyeva Mahfuza Akramjonovna “Ona tili darslarini milliy dastur talablari asosida tashkil etish dolzarb pedagogik muammo sifatida” Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2023/7 718-725

O‘ZBEK TILI FRAZELOGIYASI

¹ Ne‘matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. "O‘qituvchi", T.: 1995.

Mo‘minova Sevinch Xurshidjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti talabasi

***Annotatsiya:** Maqolada o‘zbek tilshunoslari tomonidan tilimizning frezalogiyasini o‘rgangan olim-u olimalarning ishlari va o‘zbek tili frazeologiyasining tasniflari haqidagi fikrlar atroflicha bayon etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** tilshunoslik, nazariya, frazeologiya, maqol, ibora, lug‘at, til, so‘z.*

***Abstract:** The article describes in detail the work of Uzbek linguists who studied the phraseology of our language and the opinions about the classifications of the phraseology of the Uzbek language.*

***Key words:** linguistics, theory, phraseology, proverb, dictionary, language, word.*

Kirish.

O‘zbek tilining qo‘llanishida frazeologizmlar ya’ni iboralar juda ham katta rol o‘ynaydi. Kishilarning nutq jarayonida turli frazeologizmlar qo‘llashi uning badiiy kitoblarni ko‘p mutolaa qilishidan dalolat beradi. Ayni vaqtda esa tilimiz o‘zida ko‘plab iboralarni jam qilganligi bilan boshqa tillardan ajralib turadi. Mustaqillik davrida tilimizning frazeologik boyligini to‘la qamrab oluvchi turli xil izohli lug‘atlar, so‘zliklar yaratishga alohida ahamiyat berib kelinmoqda. Masalan, Sh.Rahmatullayevning «O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati» (1992), M.Sodiqovanning “Qisqacha ruscha o‘zbekcha barqaror iboralar lug‘ati” (1994), B.Yo‘ldoshev, K.Bozorboyevning “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati” (so‘zlik, 1998), singari leksikografik asarlarni shular jumlasiga kiritishimiz mumkin.

1992-yilda Sh.Rahmatullayev tomonidan nashr etilgan “O‘zbek tilida fe’l frazemalarining bog‘lashuvi” nomli monografiyasi ushbu sohada yaratilgan dastlabki tadqiqot natijalaridan biri hisoblanadi. Unda frazeologizmlarning semantik

strukturasiga alohida ta'rif berilgan bo'lib, ularni o'zaro darajasiga qarab izohlab bergan¹.

Asosiy qism.

G.M.Adashulloyeva tomonidan filologiya fan bo'yicha bo'yicha falsafa doktori darajasini olish uchun 2018-yilda "Tojik va o'zbek tillarida shaxs xususiyatini ifodalovchi frazeologizmlarning qiyosiy-tipologik tahlili" mavzusida dissertatsiya himoya qilingan. Ilmiy tadqiqotda tojik va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklar shaklining murakkabligi, semantikaning butunligi, frazeologik birliklarning o'zaro yaqinligi va farqli jihatlari, qo'shimcha ravishda o'zaro omonimlik xususiyatlari haqida ilmiy fikrlar yuritilgan. Ushbu ilmiy ishda ilgari surilgan ma'lumotlardan 2017 yilda "O'zbekiston" milliy teleradiokompaniyasi tomonidan e'fira uzatilgan "Ranginkamon" nomli tojik tilida olib boriladigan ko'rsatuvni tayyorlashda foydalanilganligini alohida ta'kidlab o'tish joizdir. Tadqiqot natijalari asosida jami 8 ta ilmiyamaliy anjumanda muallif o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etgan².

Frazeologiya sohasini o'rgangan tilshunos olimlardan biri bu A. Mamatov o'zbek frazeologik birikmalarini shakllanish jihatdan o'rgangan holda 4 ta tasnifga ajratadi:

1. Shaxs faoliyati va psixikasi bilan bog'liqligi jihatidan shakllangan frazeologizmlar: ko'ngli ochiq, hafsalasi pir bo'lmoq, yerga ura ko'kka sapchimoq va hokazo.

2. Kasb-korga bog'liqligi jihatidan shakllangan frazeologizmlar: bo'zchining mokisidek.

3. Hayvonlarga xos obrazlar asosida shakllangan frazeologizmlar: oyog'i kuygan tovuqday, ammaning buzog'iday, to'ygan qo'zi va hokazo.

4. Dinga bog'liqligi jihatidan shakllangan frazeologizmlar: xudo ko'tarsin, payg'ambar hassasi bilan turgan singari³.

Frazeologizmlarda ham leksemalarda bo'lagani kabi sinonimlik, antonimlik, omonimlik holatlari kuzatiladi. H.Jalmonxonovning fikriga ko'ra bunday munosabat

¹ Qodirova M O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarning o'rganilishi jarayonlari Science And Innovation International Scientific Journal 2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337

² G.M.Adashulloyeva. "Tojik va o'zbek tillarida shaxs xususiyatini ifodalovchi frazeologizmlarning qiyosiy-tipologik tahlili". Samarqand. 2018. 146-bet.

³ Mamatov A. Antonimiya asosida frazeologik shakllanish masalalari. // O'zbek tili va adabiyoti. O'zFAN., T., 1998.

asosida frazeologik sinonimiya va frazeologik anotonimiya vujudga keladi. Masalan og‘zi qulog‘ida va boshi osmonga yetdi frazeologik birliklari o‘zaro sinonim, har ikkalasi ham quvonch va xursandchilikni bildiradi. Ko‘kka ko‘tarmoq va yer bilan bitta qilmoq esa o‘zaro antonim birliklar sanaladi. Maqollar ham frazeologik birikmalarga aloqador sanaladi ya’ni u ham ham frazeologik birikmalarning bir turi¹. Masalan, og‘riq yo‘q – yutuq yo‘q, Muhtojlikdagi do‘st – haqiqiy do‘st, Do‘st kulfatda bilinar.

XULOSA

Bugungi kunga kelib zamonaviy tilshunoslikda Frazeologiya alohida o‘ringa ega. Bu soha keyingi paytlarda rivojlanib va buning ustida ko‘plab ilmiy ishlar olib borilmoqda. Frazeologiya iboralar haqidagi bilimdir. Iboralar, so‘z uyushmalari, erkin va turg‘un uyushmalar bo‘lib frazeologiyada ular tuzilishi va ma‘no jihatdan o‘rganiladi. Frazeologik birlik nutqqa daxldor bo‘lgan birlik bo‘lib, birdan ortiq mustaqil leksema ko‘rinishidagi birikuvdan tashkil topgan obrazli ma‘noviy birlik hisoblanadi.

REFERENCES

1. Mamatov A. Antonimiya asosida frazeologik shakllanish masalalari. // O‘zbek tili va adabiyoti. O‘zFAN., T., 1998.
2. G.M.Adashulloyeva. “Tojik va o‘zbek tillarida shaxs xususiyatini ifodalovchi frazeologizmlarning qiyosiy-tipologik tahlili”. Samarqand. 2018. 146-bet.
3. Qosimova A. O‘zbek Va Ingliz Frazeologiyasi Tahlili Scientific Progress Volume 2 | ISSUE 7 | 2021 ISSN: 2181-1601
4. Arabboyeva M. A. “Ona tili darslari orqali o‘quvchilrning ijtimoiy –emotsinoal-fuqarolik kompotensiyalarini rivojlantirish” Zamonaviy ta’lim. Toshkent 2022/ 12 43-47
5. Arabboyeva Mahfuza Akramjonovna “Ona tili darslarini milliy dastur talablari asosida tashkil etish dolzarb pedagogik muammo sifatida” Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2023/7 718-725

GAP NAZARIYASI HAMDA SINTAKSISNING TILSHUNOSLAR

¹ Qosimova A. O‘ZBEK VA INGLIZ FRAZELOGIYASI TAHLILI SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 7 | 2021 ISSN: 2181-1601

TOMONIDAN O'RGANILISHI

Abdullayeva Nozima Shavkatjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti talabasi

***Annotatsiya:** Maqolada gap nazariyasi va sintaksisning tilshunoslar tomonidan o'rganilish jarayonlari hamda tilimizda gap va sintaksisning o'rni, ahamiyati haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** gap, tilshunoslik, sintaksis, mantiq, so'zlashuv, uslub, leksikologiya.*

***Abstract:** The article discusses the processes of studying sentence theory and syntax by linguists, as well as the role and importance of sentence and syntax in our language.*

***Key words:** sentence, linguistics, syntax, logic, conversation, style, lexicology.*

Kirish.

Bugun hayotimizga globallashuv jarayonlari tobora kirib kelmoqda. Vaholanki, globallashuv jarayonining eng katta xavfi u eng avvalo tilga ta'sir qiladi. Bunday vaziyatda o'z ona tili taqdiriga befarq bo'lgan, uni asray olmagan xalq millat sifatida o'zligini yo'qotishi hech gap emas. inson uchun uning vatani, ota-onasi, oilasi qanchalik qadrli bo'lsa, uning ona tili ham shu qadar aziz va muqaddas bo'ladi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "Bugungi kunda biz yangi O'zbekistonni, yangi Renessans poydevorini barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga erishishda, hech shubhasiz, ona tilimizning hayotbaxsh qudratiga tayanamiz".

Asosiy qism.

Gap nazariyasi o'zbek tilshunoslari tomonidan keng o'rganilgan. Maqolaning ushbu qismi gaplar masalasiga bag'ishlanar ekan, olimlar va tadqiqotchilar tomonidan tavsiya etilgan gaplar ta'riflarini keltirishimiz lozimdir. Gaping ifodasiga bag'ishlangan ta'riflar nihoyatda ko'pdir. Tadqiqotchilarning gap masalasining

o'rganilishiga turli aspektdan yondashganligi tufayli gap ta'riflari ham rang-barangligi bilan ajralib turadi. I.Ivanova va V.Burlakovaga asosan gap so'zlardan iborat bo'lgan nutqning minimal ajralmas qismi hisoblanib, kommunikativ niyat va sintaktik ifodalanishi orqali ta'riflanadi¹. Gap barcha tillarda grammatikaning asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilar va olimlar o'z munosabatini gap tasnifiga turlicha bildirgan. A.Nurmonov gapni sintaktik sathning eng kichik birligi sifatida izohlaydi. "So'z birikmasi va boshqa sintaktik tushunchalar shu birlikning elementlari. Hozirgi hamma sintaktik nazariyalarda gap asosiy sintaktik birlik sifatida tan olinsa ham, ammo shu vaqtga qadar u o'zining aniq bir umumiy ta'rifiga ega emas. Hozirgi kunda gapning 300dan ortiq ta'rifi mavjud. Antik davrdan XIX asrga qadar tilshunoslikda hukm surgan mantiqiy olim vakillari gapga hukm nuqtai nazaridan yondashib, so'zlar vositasida anglashilgan fikr deb hisoblaydilar²". A.Nurmonov gapning 300 dan ortiq ta'rifi turli aspektlarga asoslanganligini ham izohlaydi: "Gapning uch yuzdan rang-barang ta'riflari uning murakkab struktura ekanligidan dalolat beradi.³ Gap, aslida, so'zning erkin birikuviga ham asoslanganligi tufayli so'zning bog'lanish qonuniyati, so'z birikmasi ham sintaksisda o'rganiladi. Sintaksis so'zning har qanday birikuvini emas, balki hokim-tobelik munosabatiga kirishgan erkin nutqiy birikuvning lisoniy mohiyatini tekshiradi. Qaysidir yo'sindagi so'zning birikuvi bo'lgan qo'shma so'z (uchburchak, ertapishar, sotib olmoq), frazeologik birlik (ilonning yog'ini yalagan, po'konidan yel o'tmagan, ko'ngli bo'sh) sintaksisning tadqiq doirasidan chetda qoladi. Chunki ular erkin bog'lanishga ega emas.

Sintaksis atamasi grammatika atamasining o'zi kabi ikki ma'noli:

- 1) tilning sintaktik qurilishi;
- 2) grammatikaning tarkibiy qismi. Atamani ana shu ikkinchi ma'nosida qo'llab, birinchi ma'no ifodasi uchun sintaktik qurilish atamasini ishlatamiz. Gap haqida yetarli fikrlar bayon etilgan bo'lsa, endigi fikr sintaksisning tilshunosligimizdagi o'rni haqida davom etadi.

¹ Ivanova I., Burlakova V., Pocheptsov G., Theoretical Grammar of modern English language.– Moscow.1981

² 4 Nurmonov A. Tanlangan asarlar. –Toshkent "Akademnashr", 2012. – B.288

³ 4 Nurmonov A. Tanlangan asarlar. –Toshkent "Akademnashr", 2012. – B.288

O‘zbek tili sintaksisi tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida dastlab Fitrat tomonidan “nahv” atamasi ostida o‘rganildi. Shundan so‘ng H.Qayumiy va S.Dolimov ham ikki qismli “Grammatika” asarini yozib, ikkinchi qismini “nahv” deb nomlaganlar¹. O‘zbek tili sintaktik birliklarni ilmiy asosda o‘rganish XX asrning 40- yillarda boshlangan. Sintaktik sath birliklarini o‘rganish Ovrupa tilshunosligining yutuqlari asosida chuqur o‘rganish A.G‘ulomov nomi bilan bo‘g‘liq. U “O‘zbek tilida aniqlovchilar” mavzusi bo‘yicha ilmiy ish qilgan. Shuningdek ushbu olim o‘zbek sintaksisi nazariyasiga “O‘zbek tilida so‘z tartibi” va “Sodda gap” nomli o‘z ilmiy asarlari bilan katta ulush qo‘shgan. Keltirilgan olimlardan tashqari buy o‘nalishda juda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va olib borilmoqda.

XULOSA

Xulosa o‘rnida, har bir til rang-barang va boydir. Ularni kundalik hayotda qo‘llash nutqimizni yanayam chiroyli va ravon qiladi. Ko‘rinib turibdiki, gaplar tadqiqi nihoyatda jiddiy va keng qamrovli yondashuvlarni talab qiladi. Gapning turli tasnifi bo‘yicha tillarni qiyoslash va taqqoslash bugungi kun tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri, deb hisoblanadi. Tilimizdagi sintaktik hodislar va birliklarni o‘rganish ham o‘zbek tilining rivojlanishida katta ahamiyatga egadir. Til bu yurtning o‘tmishi, buguni hamda kelajagining asosidir.

REFERENCES

1. Ivanova I., Burlakova V., Pocheptsov G., Theoretical Grammar of modern English language.– Moscow.1981
2. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. –Toshkent “Akademnashr”, II jild, 2012. – B.418
3. Arabboyeva M. A. “Ona tili darslari orqali o‘quvchilarning ijtimoiy – emotsional-fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish” Zamonaviy ta’lim. Toshkent 2022/ 12 43-47
4. Arabboyeva Mahfuza Akramjonovna “Ona tili darslarini milliy dastur talablari asosida tashkil etish dolzarb pedagogik muammo sifatida” Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2023/7 718-725

¹ Nurmonov A. Tanlangan asarlar. –Toshkent “Akademnashr”, II jild, 2012. – B.418

MURAKKAB SINTAKTIK BIRLIKLAR TAHLILI ORASIDAGI UMUMIY HAMDA FARQLI HOLATLAR

Shermaxamadova Saida To‘lqinboy qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti talabasi

***Annotatsiya:** Maqolada hozirgi kunda tilshunoslikka qaratilayotgan e'tibor hamda murakkab sintaktik birliklarning matnlarda qo'llanilishi va ularning gapdagi o'rni tahlili haqida so'z yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** turkiy tillar, millat, sintaktik birliklar, til, bog'lanish, struktura.*

***Abstract:** The article talks about the current attention paid to linguistics and the use of complex syntactic units in texts and the analysis of their place in the sentence.*

***Key words:** Turkic languages, nation, syntactic units, language, connection, structure.*

Kirish.

O'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub eng yirik tillardan biri hisoblanadi. Til – millatning ma'naviy boyligidir. Til nafaqat muomala vositasi – balki xalqning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarzi, tarixidir. Tilni asrash, rivojlantirish – millatning yuksalishi demak.

Bosh qonunimizda ham davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan. Hozirgi vaqtda yer yuzida o'zbek tilida so'zlashuvchilar soni qariyb 50 million kishini tashkil etishi uning dunyodagi yirik tillardan biriga aylanib borayotganidan dalolat beradi. Zero, "Davlat tili haqida"gi qonun ona tilimizning bor go'zalligi va jozibasini to'la namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratdi. Shu jihatdan bugun yurtimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarning madaniyati va urf-odatlarini, xususan, ularning ona tillarini rivojlantirish uchun ham zarur sharoitlar yaratilmoqda. Turli hududlarda

tashkil etilgan 140 ga yaqin milliy madaniyat markazlari ana shu maqsadlarga xizmat qilmoqda¹. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida tilimizning grammatik tuzilishida muhim bo'lgan sintaktik qurilmalar haqida fikrimizni davom ettiramiz.

Asosiy qism.

Ikki va undan ortiq gaplarning o'zaro semantik va sintaktik jihatdan bog'lanishidan tashkil topgan butunlikni murakkab sintaktik qurilma deb atash til birliklarining pog'onali (ierarxik) munosabati qonuniyatiga mos keladi. Bunda yaxlit matnni hosil qiluvchi qo'shma gapning teng bog'lanishli va ergash bog'lanishli har ikki turi ham mazmunan to'liq saqlangan bo'ladi:

1. Ko'p vaqt o'tmay, qirq to'rt yil Forsu Iroqda davru davron surgan, SHoh SHujo' bilan SHoh Mahmud xabar olmaganlaridan xayron, oxir oqibat – hamma balo o'zi ardoqlab voyaga etkazgan suyuqli o'g'illaridan kelganligi etti uxlab tushiga ham kirmagan, dunyodan bexabar Amir Muboriziddin zindonda, azob-uqubatlar changalida bandalikni bajo keltirdi (Muhammad Ali. Mironshoh Mirzo, 67).

2. - Qo'y, qizim, qo'y. Bu kunlar ham o'tib ketar. SHundoq bo'lishini bilgan edim. Ammo ering urush ko'rdi, musofirchilik ko'rdi, yo'lini topib olgandir, deb o'ylagan edim. Bo'lmapti-da (Said Ahmad. Ufq).

Keltirilgan misollarda komponentlari teng bog'lanayotgan murakkab sintaktik qurilmalar mavjud. Komponentlari teng bog'lanayotgan murakkab sintaktik qurilmalarda ikki-uchtadan mustaqil predikativ markaz mavjud bo'lib, ularning har biri orqali tasvirlanayotgan voqelikka alohida ahamiyatga ega bo'lgan munosabat bildirilmoqda. Buning asosiy boisi har ikki komponent ham o'zicha mustaqil holda tub strukturaga ega ekanligidadir. Oxirgi misolda esa matn tarkibida to'rtta predikativ markaz ishtirok etmoqda.

Ergash bog'lanishli komponentlar munosabatiga asoslangan murakkab sintaktik qurilmalar tarkibiy qismlarining biri (keltirilgan uchinchi misol) xabar ifodasida muhim rol o'ynaydi. SHuning uchun bu komponent o'ziga ergashib kelayotgan

¹ Aktam Haitov Til — millatning ma'naviy boyligi Xalq so'zi gazetasi 21.10.2020

ikkinchi komponentga nisbatan semantik jihatdan ham, sintaktik jihatdan ham ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o‘z navbatida, murakkab sintaktik qurilmani yagona tub struktura asosida shakllanishga olib keladi. Tobe komponent ham ma‘lum bir tub strukturaga asoslansa-da, bu struktura matnning sintaktik jihatdan shakllanishida ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Qiyoslang: *...yoqdi shekilli --- kulib qo‘ydi*.

Yuqoridagilardan tashqari, murakkab sintaktik qurilma teng yoki ergash bog‘lanishli komponentlar munosabatining qaysi birini taqozo etishidan qat‘iy nazar, unda ustpredikativlik belgisi bo‘ladi. Boshqacha aytganda, mazkur qurilma komponentlarining alohida predikativlik belgilari asosida mazkur mikromatnning umumiy predikativlik belgisi yuzaga keladi¹. Buni murakkab sintaktik qurilmaning voqelikka bildirayotgan munosabati orqali izohlash mumkin. Darhaqiqat, murakkab sintaktik qurilmada voqelikka bildirilayotgan munosabat yaxlitlangan holatda ko‘zga tashlanadi: *Yiqilib holsiz yotgan SHoh Mansurdek mard jangchini o‘ldirishdan orlanmagan, sovg‘a-in‘omlar kutib turgan maymanalik amirni darhol tutib qatl etishlarini, mol-mulkini esa musodara qilishlarini buyurdi* (Muhammad Ali. Mironshoh Mirzo, 209).

XULOSA

Shunday qilib, sintaktik birliklarning ajralib turadigan belgilari: nutq vaziyati bilan bog‘liqlikning yo‘qligi, so‘zlovchining bahosi – oldindan aytib bo‘lmaydigan (so‘z birikmasi); nutq vaziyati bilan o‘zaro bog‘liqlik, ma‘ruzachining barcha ob‘ektiv mazmuni bir vaqtning o‘zida baholashi – monoprediktivlik (oddiy jumla); nutq vaziyati bilan korrelyatsiya, so‘zlovchining ob‘ektiv mazmuni qismlarga bo‘lgan baholashi – polipredikativlik (murakkab gap). Bu xususiyatlar sintaktik birliklarning asosiy, konstitutsiyaviy belgilarini tashkil etadi, ularning rasmiy tashkil etilishi tamoyillarini belgilaydi va shuning uchun ham ular asosida ba‘zi sintaktik birliklarni boshqalardan ajratib olish uchun etarli. Ammo sintaktik birliklarning ta‘riflarini ularning har birini alohida ko‘rib chiqish bilan aniqlashtirish, ishlab chiqish va to‘ldirish mumkin.

¹ Турниёзов Б. Ҳозирги ўзбек тилида тенг компонентли мураккаб синтактик қурилмалар деривацияси. Монография. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2008. – Б. 42-44.

REFERENCES

1. Турниёзов Б. Ҳозирги ўзбек тилида тенг компонентли мураккаб синтактик қурилмалар деривацияси. Монография. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2008. – Б. 42-44.
2. Aktam Haitov Til — millatning ma'naviy boyligi Xalq so'zi gazetasi 21.10.2020
3. Arabboyeva M. A. “Ona tili darslari orqali o'quvchilarning ijtimoiy – emotsional-fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish” Zamonaviy ta'lim. Toshkent 2022/ 12 43-47
4. Arabboyeva Mahfuza Akramjonovna “Ona tili darslarini milliy dastur talablari asosida tashkil etish dolzarb pedagogik muammo sifatida” Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2023/7 718-725

TILSHUNOSLIGIMIZDA DIALEKTIZMLARNING AHAMIYATI

Qambarova Sadoqat Dilmurod qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti talabasi

***Annotatsiya:** Maqolada tilimizning rivojlanishida qabul qilinayotgan qaror va farmonlar ahamiyati hamda tilimizdagi dialektizmlarning o‘rni haqida atroflicha fikr yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** til, millat, dialektizm, lug‘atshunoslik, shevalar, qadriyat, usul.*

***Abstract:** The article discusses the significance of decisions and decrees in the development of our language and the role of dialectisms in our language.*

***Key words:** language, nation, dialectism, lexicography, dialects, value, method.*

Kirish.

O‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e‘tiborini tubdan oshirish, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an‘ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug‘ ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta‘minlash maqsadida 2019-yil 21-oktabrda O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5850-son Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmon bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida xodimlarining umumiy cheklangan soni 9 ta shtat birligidan iborat Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etildi, barcha davlat organlarida davlat tilida ish yuritish shart qilib qo‘yildi. Davlat organlarida rahbarning ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish va davlat tilida ish yuritishni rivojlantirish bo‘yicha maslahatchi lavozimi joriy qilindi. 2020-yil 20-oktabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-

son Farmoni bilan 2020-2030-yillarda “O‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”, “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini” 2020-2022 yillarda amalga oshirish dasturi, “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish” ning asosiy yo‘nalishlari tasdiqlandi. 2020-yil 10-aprelda esa Davlatimiz rahbari tomonidan “O‘zbek tili bayrami kunini belgilash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni imzolani, 21-oktabr O‘zbek tili bayrami kuni etib belgilandi¹. Fikrimizni tilimizda dialektizmlarning o‘rni haqida davom ettirsak.

Asosiy qism.

Dialektizmlar (dialekt) – adabiy tildagi dialektlarning o‘ziga xos hududiy unsurlari. Dialektizmlarlar tilshunoslikning barcha sohalari (fonetika, leksika, morfologiya, sintaksis va boshqalar) ga taalluqli². Badiiy ijodda Dialektizmlar narsa, voqea va hodisaga mahalliy tus berish maqsadida qo‘llanadi, bundan tashqari personaj nutqini individuallashtirish uchun foydalaniladi. Biroq, bunday qo‘llash tufayli Dialektizmlar adabiy tilga oid bo‘lib qolmaydi. Dialektizmlarni qo‘llash uslublararo ham cheklangan. Badiiy uslubda ancha keng, publitsistik uslubda qisman qo‘llangani holda ilmiy, rasmiy uslublarda deyarli uchramaydi. Ba’zi so‘zlar adabiy til va dialektda qullangani holda boshqa dialektda boshqa ma’noni ifodalaydi. Masalan, “shoti”, “tovoq” Farg‘ona til shevalarida “narvon”, “lagan”ni bildirsa, adabiy tilda “arava shotisi” “kosaga uxshash idish”ni anglatadi. Xorazm shevasiga xos “g‘o‘ch” so‘zi — “mard”, “Botir”, “nishatamiz” — “nima qilamiz” degan ma’noni bildiradi. Dialektizmlardan o‘rinli foydalanish badiiy ijodning, umuman nutqning badiiyligini, uslubning fazilati, ta’sirchanligini oshiradi.

Bunda shevadagi qaysi qatlamning aks etishiga qarab dialektizmlar ham fonetik dialektizmlar, morfologik dialektizmlar, leksik dialektizmlar kabi turlarga bo‘linadi. Leksik dialektizmlar shevaga oid so‘zlarning badiiy asarlarda qo‘llanilishidir. Masalan, “Silaroq qilib quyding endi” (silaroq to‘laroq, N.Yaxshiboyev “Lolazor“).

¹ Noibaxon Mamadaliyeva, Ona tilimiz sofliyi yo‘lida fidokor bo‘laylik! mininnovation.uz 06.01.2021

² O‘ZBEKISTON MILLIY ENSIKLOPEDIYASI 11-tom 2022

Fonetik dialektizmlar badiiy asarda muayyan shevaga oid fonetik xususiyatlarning aks etishidir. Masalan, “Nazar, men muni unutmayman, jo‘ra!”(muni- buni, Oshno “Lolazor“). “Ma‘lumki fonetik dialektizmlarda emotsional bo‘yoq kuchli bo‘lmaydi. Bundan tashqari, shevaga xos bo‘lgan tovushlar sistemasini faqatgina transkripsiya orqali berish mumkin.”¹ Morfologik dialektizmlar badiiy asarlarda shevaga xos morfologik elementlarning qo‘llanilishidir. Masalan: “Ular bir yig‘nalib kelsa-da sizday ulug‘ bir insonning gaplarini o‘z qulog‘i bilan eshitsa”.(yig‘nalib - yig‘ilib .”Lolazor “). Sintaktik - stilistik dialektizmlar gap qurilishida shevaga xoslikda ko‘rinadi: “O‘sha muharrir bechora (endi qaytish qilib ketdi) shu gapni aytib dumalab-dumalab kulardi” yoki “Maynang but .Hali sen zo‘r olim-polim bo‘p ketasan-ov”(N.Yaxshiboyev “Lolazor “).

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Vatan, xalq kelajagi, o‘zlikni anglash, o‘z ona tilisining sofliğini ta‘minlash yo‘lida ogoh, fidokor bo‘lmaslik mumkin emas, bu har bir inson umrining asosiy mazmun va mohiyatini tashkil qiladi. Bu da‘vatkor so‘zlar hech vaqt o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi, chunki qadriyati mustahkam xalqimiz tilimizga e‘tiborini hech ham susaytirmaydi. Hamma vaqt zamonaviy bo‘lib yashayveradi. Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash borasida hali ko‘p ishlar oldinda turgan hozirgi vaqtda tilimizdagi dialektlarga qayta-qayta murojaat qilish maqsadga muvofiqdir.

REFERENCES

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent-2012.
2. Noibaxon Mamadalieva, Ona tilimiz sofligi yo‘lida fidokor bo‘laylik! mininnovation.uz 06.01.2021
3. Arabboyeva M. A. “Ona tili darslari orqali o‘quvchilarning ijtimoiy – emotsional-fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish” Zamonaviy ta’lim. Toshkent 2022/ 12 43-47
4. Arabboyeva Mahfuza Akramjonovna “Ona tili darslarini milliy dastur talablari asosida tashkil etish dolzarb pedagogik muammo sifatida” Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2023/7 718-725
5. Murod Muhammad Do‘st. Lolazor. T. 1988

TILSHUNOSLIGIMIZDA SINTAKSISNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Tohirova Nasiba

Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti talabasi

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada tilshunosligimizda muhim bo‘limlardan biri bo‘lgan sintaktika bo‘limi va uning o‘rni, ahamiyati va o‘rganish manbai haqida artoflicha fikr yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** sintaksis, o‘rganish manbayi, predmeti, sintaksisning bo‘limlari, tizim, tilshunoslik bo‘limlari, til sathi, sintaktik birliklar.*

***Abstract:** In this article, one of the most important sections in our linguistics, the syntactic section, and its role, importance and source of learning are discussed in detail.*

***Key words:** syntax, source of learning, subject, sections of syntax, system, sections of linguistics, language level, syntactic units.*

Kirish.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi” da “Ona tilimiz – milliy ma’naviyatimizning bitmas-tuganmas bulog‘idir. Shunday ekan, unga munosib hurmat va ehtirom ko‘rsatish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas insoniy burchimizdir”¹- deya ta’kidlab o‘tganlar. Darhaqiqat, til o‘z ijtimoiy vazifasini sintaktik qurilma–gap vositasida amalga oshiradi. Tildagi barcha – fonetik, leksik, morfologik hodisalar ana Shu sintaktik qurilishga xizmat qiladi. Biroq bular sirasida leksika va morfologiyaning til grammatik qurilishidagi ishtiroki bevosita muhimdir. Zero, har qanday sintaktik hodisada so‘z va morfologik ko‘rsatgichlarni

¹ Prezident Shavkat Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan 21.10.2019

ko'ramiz. Shu boisdan sintaktik mohiyatlarni belgilashda leksik va morfologik omillarga tayaniladi. Grammatika morfologiya va sintaksisni o'z ichiga oladi. Morfologiya, asosan, sintaktik qurilish vositalari bo'lmish grammatik ko'rsatgichlar tizimi - morfologik kategoriyalarni o'rganadi, ularning umumiy va xususiy grammatik ma'no (UGM va XGM)larini o'rganadi. Shuningdek, u so'z turkumlarining umumiy grammatik xossalarini ham tekshirib keladi. Aslida, morfologiyaning tekshirish manbayi yo leksik, yo sintaktik tabiatga ega bo'ladi. Masalan, so'z turkumlari lug'aviy ma'nosi yaqin so'zlarning yuksak darajadagi umumlashmasi, so'zlarni bosqichma-bosqich birlashtirib borish natijasida hosil qilingan katta guruhlardir. Demak, so'z ma'nolari umumlashuvi pog'onasining yuqori zinasi morfologik mohiyat sifatida qaraluvchi so'z turkumlaridir.

Asosiy qism.

Sintaksis (gr. syntaxis - tuzish, qurish) ning asosi gap haqidagi ta'limotdir. Gaplar, aslida, so'zlarning erkin birikuvlariga ham asoslanganligi tufayli so'zlarning bog'lanish qonuniyatlari, so'z birikmalari ham sintaksisda o'rganiladi. Atom xususiyatlari va ularning birikish qonuniyatlarini ochish molekula tabiatini o'rganishga bo'ysundirilganligi kabi so'z birikmalarini o'rganish ham gap ta'limotining tarkibiy qismi bo'lib, undan ajratilgan holda qaralishi mumkin emas. Sintaksis so'zlarning har qanday birikuvlarini emas, balki hokim-tobelik munosabatiga kirishgan erkin nutqiy birikuvlar va ularning lisoniy mohiyatlarini tekshiradi. Qaysidir yo'sindagi so'zlarning birikuvlari sanalmish qo'shma so'zlar (uchburchak, ertapishar, sotib olmoq), frazeologik birliklar (ilonning yog'ini yalagan, yog' tushsa yalaguday, ko'ngli bo'sh) sintaksisning tadqiq doirasidan Chetda qoladi. Chunki ular erkin bog'lanishga ega emas. Sintaktik birliklar – gap va so'z birikmalari – so'zlarning qo'shilishidan hosil bo'lishi, bu qo'shilishning esa turli vosita (qo'shimchalar, yordamchi so'zlar) va usul (masalan, tobe aloqaning turlari) lar orqali yuzaga kelishi sintaksisning boshqa sathlar bilan zich aloqada ekanligini ko'rsatadi.

Demak, nutqda:

1. Soʻz boshqa soʻz bilan tobe yoki hokim mavqeda bogʻlanadi. Buning uchun u maʼlum bir grammatik shaklga ega boʻladi (uyga bormoq, aʼlochi oʻquvchi). Grammatik shakllangan soʻz sintaksisi soʻz shakl sintaksisi deb yuritiladi.

2. Soʻzlar oʻzaro sintaktik aloqaga kirishib, tushuncha ifodalovchi birlik - soʻz birikmasi(SB) vujudga keladi. Soʻzlarning oʻzaro birikib, tushuncha ifodalovchi sintaktik birliklar hosil qilishini, bu sintaktik birliklarni yuzaga chiqaruvchi qoliplar, SBlarda tobelanish va uning yoʻllarini oʻrganuvchi boʻlim SB sintaksisi deyiladi.

3. Gap kishilar orasida fikr, axborot uzatish uchun ishlatiladigan asosiy birlik boʻlib, fikr ifodalashning eng oddiy va tipik koʻrinishidir. Soʻzlovchi uchun fikr ifodalash va axborot uzatish, tenglovchi uchun axborot qabul qilish vositasi sanalmish gap va uning qurilishi, tuzilishi, tarkibiy qismlari va mazmuni bilan aloqador jihatlarni oʻrganadigan boʻlim gap sintaksisi sanaladi.

XULOSA

Demak, sintaksisda soʻzlar kengroq aspektida, ularning maʼnosi va vazifasi hisobga olingan holda tekshiriladi. Gap va uning asosiy belgilari. Kishilar bir- birlari bilan fikr almashadilar. Bu fikr almashuv gap orqali boʻladi. Gap uning grammatik xususiyatlari, soʻzlarning oʻzaro bogʻlanish yoʻllari sintaksisda oʻrganiladi. Sintaksisning asosiy oʻrganish obʼyekti gapdir. Voqelikni va unga boʻlgan munosabatni ifoda qilish uchun grammatik jihatdan shakllangan intonatsion hamda mazmun jihatdan nisbatan mustaqillikka ega boʻlgan soʻzlar bogʻlanmasi yoki yakka soʻz gap deyiladi.

REFERENCES

1. Абдурахмонов Ғ., Холиёров Х. в.б.Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Т., 1979.
2. Сайфуллаева Р., Менглиев Б. в.б.Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. III. – Т., 2006.
3. Kulimbetova M “Sintaksis haqida tushuncha” Международный научный журнал № 5 (100), часть 1 «Научный импульс» Декабрь, 2022
4. Arabboyeva M. A. “Ona tili darslari orqali o‘quvchilarning ijtimoiy – emotsional-fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish” Zamonaviy ta’lim. Toshkent 2022/ 12 43-47
5. Arabboyeva Mahfuza Akramjonovna “Ona tili darslarini milliy dastur talablari asosida tashkil etish dolzarb pedagogik muammo sifatida” Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2023/7 718-725

UDC: 004.735

METHODS FOR MANAGING THE RELIABILITY AND QUALITY OF IoT SENSORS

Muradova Alevtina Aleksandrovna

TUIT named after Muhammad al-Khwarizmi

PhD, Associate Professor of the Department of Telecommunication Engineering

Email: a.muradova1982@inbox.ru,

Begmatov Shohruh Abduvahob o'g'li

TUIT named after Muhammad al-Khwarizmi, PhD, Associate Professor of the Department of Television and Radio Broadcasting Systems

***Abstract.** The article presents an analysis of methods for managing the reliability and quality of IoT sensors. An analysis of the factors influencing the performance of sensors at different stages of their life cycle was carried out. Methods for predicting reliability parameters are proposed that make it possible to ensure regulated quality indicators already at the design stage of sensor-transforming equipment.*

***Keywords:** sensors, methods for predicting reliability parameters, models for calculating reliability indicators of sensors, predicting sensor reliability, Joule-Lenz law, Boltzmann constant.*

МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ НАДЕЖНОСТЬЮ И КАЧЕСТВОМ IoT-ДАТЧИКОВ

***Аннотация.** В статье представлен анализ методов управления надежностью и качеством IoT-датчиков. Проведен анализ факторов, влияющих на работоспособность датчиков на разных этапах их жизненного цикла. Предложены методы прогнозирования параметров надежности, позволяющие обеспечить регламентированные показатели качества уже на этапе проектирования сенсорно-преобразовательной аппаратуры.*

***Ключевые слова:** датчики, методы прогнозирования параметров надежности, модели расчета показателей надежности датчиков, прогнозирование надежности датчиков, закон Джоуля-Ленца, постоянная Больцмана.*

Introduction. For consumers of sensors, product quality is a significant issue due

to the negative consequences of using low-quality products, since sensor failure can lead to the failure of an entire complex of expensive, high-performance equipment. Monitoring the reliability of an organization is a tool that allows you to increase the efficiency of coordination and control of all business processes, increase the degree of rational use of all types of resources and respond much faster to changes in market conditions. An analysis has been made of the factors influencing the performance of sensors at different stages of their life cycle. Methods for predicting reliability parameters are proposed that make it possible to ensure regulated quality indicators already at the design stage of sensor-converting equipment. The use of models for calculating reliability indicators of sensors, based on predictive information about similar, previously created products, will improve the quality and reliability indicators at the design stages of sensors operating under extreme conditions of exposure to a complex of influencing quantities. The introduction of reliability management into quality management systems of production processes will significantly reduce the costs of development and production of sensor-transforming equipment [1].

Research object and methods. Analysis of methods for ensuring the reliability of sensors at different stages of its life cycle. The modern approach to ensuring the reliability of sensors at the required level is based on two aspects - mechanical and metrological reliability. On the one hand, sensors are part of the design of the objects under study, the parameters of which are measured; on the other hand, they are considered as converters of measurement information with standardized metrological characteristics. At the initial stages of development of sensor engineering, due to the absence of requirements for the mechanical reliability of sensors in the technical specifications (TS), its assessment was carried out mainly based on test results. Increasing requirements for the mechanical reliability of sensors, as well as the complexity and large volume of tests to confirm it, have led to the need to use a calculated assessment of mechanical reliability by constructing and analyzing their structural and functional diagrams. However, such an assessment was carried out, as a rule, at the final stages of sensor development, and if the mechanical reliability

indicators did not meet the established requirements, it led to the need to perform significant work and additional material costs due to changes in their design. These circumstances did not contribute to maintaining competitiveness and sustainable demand for sensor-transforming equipment due to its inefficient design and production, since ultimately all these costs led to a significant increase in development time and cost. In the totality of various areas of research related to the development and application of reliability theory, two large areas can currently be distinguished [2].

The first is the development and application of mathematical methods to the problems of finding and analyzing reliability parameters of systems and elements. Here we mainly use methods of mathematical statistics and probability theory, which have been widely developed recently in their application to reliability theory. Probabilistic-statistical methods in reliability theory are considered in some way as “classics of problem solving”, and the reliability theory itself, built on these methods, is considered “classical”. Another direction is characterized by the development of work related to the study of the physics of failures, processes (mechanical, physical-chemical, electrical, etc.) that lead to certain changes in aging, wear, destruction of materials, improvement or deterioration of their properties.

Research results and their discussion. The reliability characteristics of technical products, including sensors, are usually divided into two groups: qualitative and quantitative. A qualitative definition characterizes the properties of a single product. The concept of reliability is defined by many different quantitative characteristics, and therefore cannot be used to its fullest extent. But, despite this, they often try to use quantitative characteristics of reliability, because qualitative characteristics cannot be expressed mathematically. This led to the need to create new basic criteria that could quantify the reliability of specific elements and evaluate the reliability of products in comparison with each other. The most commonly used reliability criteria are: failure rate (the conditional probability density of the occurrence of an object failure, determined under the condition that a failure did not occur before the considered point in time); probability of failure-free operation (the probability that an object will not fail

within a given operating time); gamma-percentage time to failure (time to failure, during which an object failure will not occur with a probability expressed as a percentage).

The reliability characteristic is understood as a specific quantitative value of the reliability criterion for a specific part. These quantitative values help to calculate reliability, calculate the approximate service life of sensors, and calculate the estimated repair time [3]. Reliability for sensors is, first of all, the ability of a product to perform specified functions, maintaining over time the values of established performance indicators within specified limits corresponding to specified modes and conditions of use, maintenance, repair, storage and transportation under extreme operating conditions. This is a quality that extends over time. Therefore, the concept of reliability is close to the concept of quality, and therefore the problems of quality management are directly reflected in the concept of reliability.

Reliability control as a quality improvement tool. Currently, work is underway to create sensors with elements of self-diagnosis, intellectualize the processes of receiving and processing information, expand the functionality of equipment based on the use of new structural materials, critical technologies, micro- and nanotechnologies.

The main indicators of the quality of sensors, confirmed by many years of practice in their use in technology, are high reliability and performance in difficult operating conditions while maintaining established metrological characteristics. Product quality is ensured at the stages of development, production, testing in accordance with established processes of the quality management system.

An effective and affordable means of improving the quality of sensors and thereby achieving reliability goals is the development and application of a reliability management concept at the enterprise. The concept describes the general processes of the reliability management system and is intended for strategic management of quality policy and coordination of activities to ensure the reliability of sensors, increase their efficiency and improve the financial results of the enterprise. The reliability management system should include a program for achieving goals in the field of

product reliability, providing resources to complete these tasks, monitoring, analyzing performance results and coordinating it in terms of meeting the needs and expectations of consumers.

The reliability program identifies critical factors responsible for achieving sensor reliability objectives, and develops a strategic plan that establishes objectives, methods, sequence of actions to achieve reliability goals, and criteria for measuring performance. The objectives of the reliability program must be maintained, the management infrastructure must maintain communication with the consumer, be flexible and adapt to possible changes. The basic factors that form the necessary basis for the manufacture of high-quality products with specified reliability indicators are the material base of the enterprise (fixed assets, materials and components, measuring instruments, technological and testing equipment, methodological support) and qualified personnel (human factor) [4].

A sensor goes through a number of stages in its life cycle. Each stage, from design to dismantling and disposal, is usually accompanied by measurements of a number of product characteristics used to assess whether they are of the required quality. Particular attention should be paid to the main technical factors influencing the quality of the technological process of manufacturing sensors, these include: the state of technical documentation, the degree of equipment and automation of process and testing equipment, as well as measuring instruments, quality control of materials, raw materials and components. Analysis of the results of the reliability program can be performed on the basis of experimental or analytical assessments of sensor reliability indicators.

Predicting sensor reliability. An effective way to achieve high reliability is to predict the reliability indicators of products at the early stages of their life cycle. Modeling changes in critical parameters of products under normal and severe operating conditions and operating modes provides an analytical approach to determining reliability indicators. This approach makes it possible to ensure timely fulfillment of reliability requirements when implementing long-term projects while maximizing the

Еще одним важным научно-техническим центром является ЦЕРН (Европейская организация по ядерным исследованиям) в Женеве, Швейцария. ЦЕРН является крупнейшей лабораторией по физике элементарных частиц в мире. Здесь проводятся эксперименты с использованием крупнейших ускорителей частиц, что позволяет ученым понять основы Вселенной, структуру атомов и фундаментальные законы природы.

Научно-технический потенциал Японии. До начала 80-х гг. Япония заметно отставала от США и отчасти Западной Европы по научно-техническому потенциалу, особенно в области фундаментальных исследований. Но затем, исчерпав экстенсивные факторы развития экономики, Япония перешла к опережающему росту наукоемких отраслей. С этой целью государство и частные компании сосредоточили усилия на развитии собственных исследований вместо преимущественного использования зарубежных научно-технических достижений, как это было в 50-60-е гг. Расходы Японии на НИОКР возросли с 2,1% ВВП в 1975 г. до 3,1% в 1985 г. и 3,0% в 1996 г.

Приоритетными отраслями японской экономики стали такие наукоемкие производства, как выпуск промышленных роботов, медицинской электроники, информационных систем, интегральных схем, новых металлов и керамики, оптических волокон, биотехнологии. Япония занимает ведущие позиции по экспорту микроэлектронных компонентов и электронной потребительской техники. Но, несмотря на успехи японских фирм в развитии наукоемких производств, все еще сохраняется значительная зависимость от американской технологии.

Для чего же нужны научно-технические центры для мира и какова зависимость с экономикой? Приведём несколько ключевых аспектов роли науки и развития в экономике:

1. Создание новых технологий: Научные исследования способствуют разработке новых технологий, которые могут улучшить производственные процессы, увеличить эффективность использования ресурсов и снизить затраты

на производство. Это позволяет компаниям стать более конкурентоспособными на рынке и стимулирует экономический рост.

2. Улучшение качества продукции: Научные исследования позволяют улучшить качество продукции и услуг, что способствует повышению уровня жизни, удовлетворению потребностей потребителей и созданию новых рыночных возможностей.

3. Развитие новых отраслей: Научные открытия могут способствовать развитию новых отраслей экономики, таких как информационные технологии, биотехнологии, возобновляемая энергетика и другие. Это может привести к созданию новых рабочих мест, увеличению инвестиций и расширению экономического потенциала страны.

4. Решение глобальных проблем: Научные исследования могут помочь в поиске решений для глобальных проблем, таких как изменение климата, энергетическая безопасность, борьба с болезнями и т.д. Развитие новых технологий и методов может способствовать устойчивому развитию и повышению благосостояния общества.

5. Привлечение инвестиций: Развитие научных центров и инновационных компаний может привлечь инвестиции в экономику страны, что способствует созданию рабочих мест, развитию малого и среднего бизнеса и увеличению экономического роста.

Это лишь несколько примеров важнейших научно-технических центров мира, которые играют ключевую роль в развитии науки, техники и медицины. Их деятельность способствует созданию новых технологий, улучшению качества жизни людей и решению глобальных проблем. Развитие этих центров остается одной из важнейших задач для общества в целом, поскольку они являются двигателями прогресса и инноваций. Таким образом, наука и развитие играют ключевую роль в экономике, поскольку они способствуют созданию новых технологий, улучшению производства, развитию новых отраслей и решению глобальных проблем, что в конечном итоге способствует устойчивому экономическому росту.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Худайбергенова А. Н. & Акбарова М. Ф. (2023). ПЕРСПЕКТИВЫ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ И ЛУЧШИХ СОВРЕМЕННЫХ ПРАКТИК. Educational Research in Universal Sciences, 2(14), 401–404. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4457>
2. Akbarova , M. F. qizi. (2023). POST-INDUSTRIALIZATION AS THE MOST IMPORTANT TREND OF MODERN PROCESSES IN THE WORLD ECONOMY. Educational Research in Universal Sciences, 2(16), 110–112. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4931>
3. Акбарова , М. Ф. к., & Худайбергенова , А. (2024). ОБЩАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ТЕНЕВОЙ ЭКОНОМИКИ МИРА. Educational Research in Universal Sciences, 3(1), 99–102. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5558>

YANGI QATLAM. NEOLOGIZMLAR

Mahammadjanova Marxabo Dilmurod qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti talabasi

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada bugungi kunda o‘zbek tili leksikasiga kirib kelgan va so‘zlashuv jarayonida faol ishlatilayotgan neologizmlar hamda ularning tasnifiga qaratilgan mulohazalar, ularning o‘zbekcha muqobiliga almashtirish masalalari haqida atroflicha fikr yuritiladi*

***Kalit so‘zlar:** neologizm, o‘rganish manbasi, predmeti, leksika, tizim, tilshunoslik, semantik, axborot.*

***Abstract:** In this article, neologisms that have entered the lexicon of the Uzbek language today and are actively used in conversation, as well as comments on their classification and the issues of replacing them with Uzbek alternatives are discussed in detail.*

***Key words:** neologism, learning source, subject, lexicon, system, linguistics, semantics, information.*

Kirish.

Bugungi hunda axborot almashinuvining tezlashishi zamon va makonning, til va urf-odatlarining ham o‘zgarishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda dunyoning barcha mintaqasida bo‘layotgan ma’lumotlarni sekundlar ichida bilishga egamiz. Ammo bu ma’lumotlar orqali tilimizga kirib kelayotgan neologizmlar tilning shakli ravishda o‘zgarishiga olib kelmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi” da “Ona tilimiz – milliy ma’naviyatimizning bitmas-tuganmas bulog‘idir. Shunday ekan, unga munosib hurmat va ehtirom ko‘rsatish barchamizning nafaqat

vazifamiz, balki muqaddas insoniy burchimizdir”¹ -deya ta’kidlab o‘tganlar. Avvalambor, xalqimiz o‘zligini saqlashi bu tilimizga bevosita chambarchas bog‘liqdir. Fikrimizni tilimizning boyishiga hissa qo‘shuvchi yangi qatlam –neologizmlar haqida davom ettirsak.

Asosiy qism.

Hozirda muomaladagi neologizmlar o‘rniga tilimizda mavjud bo‘lgan muqobiliga almashtirish va bu kabi tilimizga keyinchalik ham kirib keladigan neologizmlarni muomala jarayoniga olib kirmasdan ilgariroq tilizdagi muqobiliga almashtirish. Demak, hozirda tilshunoslikdagi katta muammolardan biri – neologizmlardir. Bizni oldimizda ikkita bajariladigan ish mavjud bular: hozirda muomalada bo‘lgan neologizmlarni o‘zbek tilidagi muqobiliga almashtirish va bu muqobilning muomalada ijobiy qabul qilinishiga erishish. Ikkinchidan, texnika asrida tilimizning sofligini saqlash maqsadida keyinchalik kirib kelayotgan neologizmlarni muomalaga kirmasdan ilgari o‘zbekcha muqobilini yaratish va bu ishni amalga oshirishda tilimizni rivojlatiradigan barcha tashkilotlarga birdek ma’suliyat yuklashdir².

Bugungi kunda dunyoning barcha mintaqasida bo‘layotgan ma’lumotlarni sekundlar ichida bilishga egamiz. Ammo bu ma’lumotlar orqali tilimizga kirib kelayotgan neologizmlar tilning shakily ravishda o‘zgarishiga olib kelmoqda. Ularga birgina bank sohasi doirasida oladigan bo‘lsak anchagina salmoqqa ega so‘zlarni ko‘rishimiz mumkin. Kundalik turmushdagi yangicha munosabatlarni, yangi narsalar va ularning belgilarini, yangi hodisalar, tushunchalarni ifodolovchi lug‘aviy birliklardir. Bunday so‘zlar xususiyatiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi:

1. Leksik o‘zlashma neologizmlar.

2. Semantik o‘zlashma neologizmlar. Leksik o‘zlashma neologizmlar tilga tamoman o‘zlashib ketmagan o‘zbek tilining o‘zida yasalgan yoki boshqa tillardan o‘zlashib butunlay iste’molga kirmagan so‘zlardir. Masalan, zovut, zamin studiyasi,

¹ Prezident Shavkat Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan 21.10.2019

² Qo‘ziboyeva G “Tilimizga kirib kelgan neologizmlar va ularning tahlili” SCIENCE AND INNOVATION 2022 № 3

sarhad, kollej, menejment, bakalavriat, magistratura, dastur, bar, bojxona, aksiya, bandargoh, tuman kabilar.

Semantik o'zlashma neologizmlar tilda oldindan mavjud bo'lgan va hozirda yangi ma'noda ishlatilayotgan so'zlardir. Masalan, tuman (rayon), viloyat (oblast), do'kon (magazin), anjuman (konferensiya) va boshqalar¹. Deyarli barchasi ingliz yoki boshqa tillardan aslidek olingan so'zlar hisoblanadi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, bugungi kundagi neologizmlarning tilimiz leksikonida vaqtlar o'tib muqobil sifatida qolib ketishining oldini olish va tilimizni soflicha saqlash uchun tilshunoslarimiz oldida ulkan ishlar kutib turibdi. Dunyoda boshqa tillardan so'z olmaydigan bironta ham til yo'q. Kurash, yonbosh, chala, halol so'zlari dunyoning barcha tillariga kirib borayotgani bizning tilimiz ham turmushimizga kirib kelgan bir qator yangi tushunchalarni ifodalovchi olinma so'zlar hisobiga boyib bormoqda. O'zbek tili leksikasi turmushimiz uchun keraksiz bo'lib qolgan tushunchalarni bildiruvchi so'zlarning iste'moldan chiqib ketishi, yangi paydo bo'lgan tushunchalarni ifodalovchi so'zlarning esa kirib kelish hisobiga o'zgarib, rivojlanib boraveradi.

¹ Abduvaitov E "O'zbek tilida neologizmlar" Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 6 | 2023

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Xojayev A, Nurmonov A, Zaynobotdinov S. “Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati”. 2012
2. Qo‘ziboyeva G “Tilimizga kirib kelgan neologizmlar va ularning tahlili” SCIENCE AND INNOVATION 2022 № 3
3. Abduvaitov E “O‘zbek tilida neologizmlar” Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 6 | 2023
4. Arabboyeva M. A. “Ona tili darslari orqali o‘quvchilarning ijtimoiy –emotsional-fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish” Zamonaviy ta’lim. Toshkent 2022/ 12 43-47
5. Arabboyeva Mahfuza Akramjonovna “Ona tili darslarini milliy dastur talablari asosida tashkil etish dolzarb pedagogik muammo sifatida” Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2023/7 718-725

IKKI TOMONLAMA SOLIQQA TORTISHNING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISHI

Xasanjonov Ismoiljon A‘zamjon o‘g‘li

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti 1-kurs
magistratura bosqichi talabasi

Email: ismoiljonkhasanjonov@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ikki tomonlama soliqqa tortishning paydo bo‘lishi, rivojlanishi hamda ikki tomonlama tizimini isloh qilish bosqichlari va uning zaruriyati o‘chib beriladi.

Kalit so‘zlar: *Soliqlar, iqtisodiyot, jismoniy va yuridik shaxslar, moliya, xalqaro huquqiy munosabatlar, rezident, iqtisodiy funktsiya, xarajat.*

KIRISH

Har qanday davlatning iqtisodiy faoliyati va uning funktsiyalarining asosiy prinsilaridan biri bu - soliq tizimini tashkil etish va soliq yig‘ishdir. Davlatlarda soliqqa tortish tuzilishi va moliyani tashkil etishning mohiyatini tushunmasdan turib, ikki tomonlama soliqqa tortishning paydo bo‘lishi va undan ham ko‘proq oldini olish yoki yo‘q qilish omillarini tushunish qiyin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

Rivojlanishining dastlabki bosqichlarida amalda dunyoning turli mamlakatlarida moliya va moliya fanlari amalda soliqlar bilan birlashtirilgan. Bu borada S.I.Ilovayskiy shunday ta‘kidlaydi: “Smit fanni moliyalashtirishda uning asosiy qoidalarini ajoyib tarzda aniq shakllantirish orqali katta xizmat ko‘rsatdi, ulardan ba‘zilari, masalan, Smit tomonidan taklif qilingan soliqqa tortish tamoyillari hozirgi kungacha o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda¹.

¹ Ilovayskiy S.I. Textbook of Financial Law. Edition 4-th. Odessa: The Typesetting and Lithography of A.F. Sokolovsky, 1904. C. 3.

Soliqlar va soliqqa tortish davlat bilan barqaror birlashtirilgan, bunga P. Prudonning "mohiyatiga ko'ra soliqqa tortish masalasi davlat masalasidir" deb ta'kidlagan fikrlari dalolat beradi¹. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiysining 149-moddasiga ko'ra "O'zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlarni joriy qilish huquqi O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisiga tegishlidir". Tarixan soliqlarning vazifasi va tabiati haqidagi g'oyalar o'zgargan bo'lsa-da, ularni yig'ish davlatning suveren hokimiyatiga vositachilik qiluvchi iqtisodiy funksiyasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, soliqlar va soliqqa tortish davrlar davomida "tartibga solish sohalaridan biriga tegishli bo'lib, tashqi huquqiy muhitning unga nisbatan ta'siri imkon qadar to'xtatilgan yoki cheklangan". Bu kuzatish ma'lum darajada hozirgi kungacha o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Shu munosabat bilan xorijiy va mahalliy olimlar bir-biri bilan hamjihatlikda: "Xalqaro soliqqa tortishda davlat suvereniteti masalasini ko'tarmasdan muhokama qilinadigan biron bir muhim masala yo'q"² deb hisoblaydilar.

Soliqqa tortishdan ko'ra suverenitet bilan chambarchas bog'liq bo'lgan huquq sohasi yo'q".¹ Shu bilan birga, davlatlar tomonidan soliq tizimlarining ishlashi uchun asoslarni o'rnatishda suveren irodani inkor etish mubolag'a bo'lib ko'rinadi, bu esa xalqaro hamkorlikning faollashuvi natijalarini mutlaqlashtirishga, iqtisodiyot va moliyaning xalqarolashuviga olib keladi. "Soliq tizimlarini shakllantirishda fiskal izolyatsiya va me'yoriy izolyatsiya davri o'tmishda qoldi".

Iqtisodiy faoliyat sub'ektlari tomonidan har bir davlat tomonidan savdo va boshqa operatsiyalar jarayonida turli davlatlarda soliq to'lash odatiy amaliyotga kiritilgan bo'lib, xarajatlar zarur xarajat sifatida qabul qilingan. Bunday holda, ikki tomonlama soliqqa tortishning paydo bo'lishining asosiy nuqtasi xalqaro munosabatlar mavjudligi ob'ektiv haqiqati bo'lib, uning doirasida turli davlatlarning sub'ektlari moddiy yoki nomoddiy foyda keltiradigan faoliyat turini amalga oshiradilar. Bundan kelib chiqqan

¹ Rydnina M.N., Vasilevskii E.G., Golosov V.V. et al. History of economic doctrines. Textbook. - Moscow: Higher School, 2003.

² Demin A.V. Principle of certainty of taxation: Monograph. Moscow: Statute, 2015//Access from ConsultantPlus.

holda, xalqaro miqyosda barcha soliqqa tortish dastlab nazariy, ba'zan esa amaliy jihatdan ikki yoki hatto ko'p bo'lishi kerak edi. Biroq, ikki tomonlama (ko'p martalik) soliqqa tortishning o'zi davlatlararo munosabatlarda ob'ektiv haqiqat sifatida mavjud bo'lsa-da, davlatlar bir-biridan nisbiy izolyatsiya qilinganligi va ularning to'liq mustaqilligini ta'minlashda bunday omilning ichki qonunchilikka sezilarli ta'siri yo'q hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy muammo sifatida ikki tomonlama soliqqa tortishning konturlari hali paydo bo'lmagan. Ikki tomonlama soliqqa tortish yuki ma'lum bir davlat fuqarolariga ham, boshqa davlatlarning fuqarolariga (rezidentlariga) ham soliq to'lash majburiyati yuklanganida, davlatlararo darajada maxsus tartibga solish talab qilinadi. Birinchi davlatning hududi xalqaro savdo aloqalari rivojiga to'siq bo'ladi, chunki ularning hajmi o'sib, kengayib, murakkablashib boradi. Ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy muammo sifatida ikki tomonlama soliqqa tortishning konturlari hali paydo bo'lmagan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Turli davlatlarning soliq nizolarini hal qilish amaliyotini o'rganish natijasida ekspertlar "xalqaro munosabatlarda ikki tomonlama soliqqa tortishning quyidagi sabablarini keltiradilar:

- 1) bir xil shaxsni (yuridik yoki jismoniy shaxsni) ikki yoki undan ortiq mamlakatlarda rezident sifatida tan olish;
- 2) ikki yoki undan ortiq davlatlarda kelib chiqish manbasiga ega bo'lgan bir xil daromad/mulkning kvalifikatsiyasi;
- 3) davlatlar o'rtasidagi daromadlarning ta'riflari, tasniflari va turlaridagi farqlar;
- 4) amalga oshirilgan xarajatlar uchun chegirma berish tartibi va miqdoridagi farqlar;
- 5) bir davlatda yashash mezonlari bo'yicha, boshqasida esa daromad manbai tamoyili bo'yicha bir xil daromad/mulkni soliqqa tortish;

6) manfaatdor mamlakatlardan birining milliy qonunchiligida boshqa davlatda to‘langan soliqlarning ayrim turlarini hisobga olish qoidalarining yo‘qligi¹.

Bunday fikr xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan xalqaro operatsiyalarni amalga oshirishda qo‘shma omil sifatida ikki tomonlama soliqqa tortishga nisbatan soliq solishning joriy holati va huquqiy tartibga solishning joriy holatini aks ettiradi. Agar turli davlatlar va jahon xo‘jalik tizimidagi iqtisodiy va huquqiy taraqqiyotning oldingi bosqichlari haqida gapiradigan bo‘lsak, dastlabki yondashuv, shubhasiz, soliq va yig‘imlarni yig‘ishning hududiy boshlanishiga asoslangan edi. Ikki tomonlama (ko‘p martalik) soliqqa tortishga munosabat, iqtisodiy munosabatlarga to‘sqinlik qiluvchi haqiqatan ham mavjud hodisa sifatida, shartli ravishda, bir tomondan, tarixiy, ijtimoiy va iqtisodiy (ob’ektiv) ga bo‘linadigan ko‘plab omillar ta’sir ko‘rsatdi. Davlatlararo siyosiy-huquqiy (sub’ektiv), ya’ni davlatlarning maqsadli faoliyatidan kelib chiqadigan soliqqa tortish evolyutsiyasining rivojlanish jarayoni va bosqichlarini farqlash va soliqqa tortishda xalqaro hamkorlik haqida turlicha qarashlar mavjud. V.M. Pushkareva soliqqa tortish evolyutsiyasini to‘rtta davrga ajratib ko‘rsatadi:

- 1) qadimgi dunyo va o‘rta asrlarning iqtisodiy tizimlarini o‘z ichiga olgan davr;
- 2) 17-asr oxiri - 19-asrning ikkinchi yarmi - soliqqa tortishning rivojlanish davri;
- 3) XX asr boshlarida zamonaviy soliq tizimini qurish davri;
- 4) XX asr oxiri - soliq siyosatini rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalarining boshlanishi².

Soliqqa tortish sohasidagi xalqaro huquqiy munosabatlarni davrlashtirishga kelsak, tegishli muddat ob’ektiv ravishda ancha qisqaroq ko‘rinadi. Turli manbalarda bu tarixiy davr nisbatan qisqa - ikki asrdan kamroq vaqt deb ta’riflanadi. A.I. Pogorletskiy soliq sohasidagi davlatlararo hamkorlik (milliy soliq tizimlarining yaqinlashishi) rivojlanishining to‘rtta asosiy vaqtinchalik bosqichini ajratib ko‘rsatadi:

- 1) 19-asrning 2-yarmi. - 1913 yil (Birinchi jahon urushigacha);

¹ Rosenbloom H.D. Sovereignty and the Regulation of International Business in the Tax Area // Canada - United States Law Journal. 1994. Vol. 20. P. 267.

² Babanin V.A., Voronina N.V. Double taxation and tax evasion as international problems // All for accountant. 2007, № 10 (202). C. 34.

- 2) urushlararo yigirmanchi yillar (1919-1939) va Ikkinchi jahon urushi davri);
- 3) 1940-yillarning 2-yarmi (ikkinchi jahon urushidan keyin) - 1990-yillarning o'rtalari;
- 4) 1990-yillarning 2-yarmidan hozirgi kungacha".

Yuqoridagi xulosalar bilan bog'liq holda, bir qator fikrlarni ta'kidlash lozim. Birinchidan, soliq hamkorligini xalqaro huquqiy tartibga solishning mohiyatini "milliy soliq tizimlarining yaqinlashuvi" deb tasniflash qiyin, chunki hozirgi vaqtda ham, yaqin kelajakda ham turli davlatlarning soliq tizimlarini "mos kelishi yoki birlashishi" mumkin emas. Ikkinchidan, ushbu sohadagi xalqaro hamkorlikning muhim bosqichlarini bayon qilish, shubhasiz, foydalidir. Shu bilan birga, ularni oddiy bosqichlarga bo'lish emas, balki ma'lum bir davrda hukmronlik qiladigan asosiy omillar va xususiyatlarni ko'rsatish muhimdir.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, soliqqa tortish mexanizmi har bir davlatning ichki boshqaruv tizimiga oid hisoblanib, mazkur masalani davlatlar mustaqil tarzda qaror qabul qiladilar. Ammo ikki tomonlama soliqqa tortish nafaqat fuqarolarga balki davlatning iqtisodiyotiga ham teskari ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi globallashtirish davrida esa ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olish har bir davlatning tashqi siyosatidagi asosiy masalalaridan biriga aylangan. Shu sababli mazkur sohada xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, soliqqa tortishning muqobil mehanizmlarini ishlab chiqish juda ham zarur.

FOYALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi
3. Ilovaysky S.I. Textbook of Financial Law. Edition 4-th. Odessa: The Typesetting and Lithography of A.F. Sokolovsky, 1904. C.
4. Rydnina M.N., Vasilevskii E.G., Golosov V.V. et al. History of economic doctrines. Textbook. - Moscow: Higher School, 2003
5. Demin A.V. Principle of certainty of taxation: Monograph. Moscow: Statute, 2015//Access from ConsultantPlus.
6. Rosenbloom H.D. Sovereignty and the Regulation of International Business in the Tax Area // Canada - United States Law Journal. 1994. Vol. 20. P. 267
7. Babanin V.A., Voronina N.V. Double taxation and tax evasion as international problems // All for accountant. 2007, № 10 (202). C. 34.

MILLIY RUH, BU — YENGILMAS KUCH

Nazimov Raxmatilla Normuradovich,

O‘R QK Kichik mutaxassislar tayyorlash Markazi,

Qurollanish va otish sikli katta o‘qituvchisi, Qurolli Kuchlar xizmatchisi.

*Milliy armiya va harbiylarimiz xalqimizga qancha yaqin,
bir tanu bir jon bo‘lsa, shuncha qudratli bo‘ladi.*

Sh.M. Mirziyoyev,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Vatanparvarlik tushunchasi, milliy ruh va milliy g‘oya tushunchalari va ushbu tushunchalarni harbiy xizmatchilar qalbida ri milliy armiyamizning jangovar ruhini, yoshlarimizda mardlik va shijoat fazilatlarini yanada kuchaytirish haqida ma‘lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: milliy g‘oya, milliy ruh, milliy o‘zlik, jangovar qobiliyati, tafakkur.

VATANPARVARLIK TUSHUNCHASI

Vatan (*arabcha* “vatan”- ona yurt) kishilarning yashab turgan, ularning avlod va ajdodlari tug‘ilib o‘sgan joyi, hududi, ijtimoiy muhiti, mamlakati.

Vatan insonning ruhiyati, turmush tarzi, ongi va tafakkuri, o‘tmishi, buguni va kelajagi mujassam bo‘lgan tushunchadir.

Vatan oiladan, o‘zi tug‘ilib o‘sgan go‘shadan boshlanadi. Shuning uchun u yashab, nafas olib turgan xonadonga, ulg‘ayib voyaga yetishishida muhtasham va qudratli makon bo‘lgan ona zaminga mehr-muhabbat va sadoqat abadiy bo‘lmog‘i zarur. Har bir insonning Vatanga bo‘lgan muhabbati ona suti, ona allasi va ota-ona mehri bilan uning vujudiga singib boradi.

Milliy g'oya, milliy ruh, milliy o'zlik, albatta, tarixga ob'ektiv munosabat orqali shakllanadi. Yoshlar o'z ajdodlarining hayotini haqqoniy o'rganishi kerak. Afsuski, boshimizdan kechirgan mustamlakachilik zamonlarida buning aksi qilindi. E'tibor bering, bir necha avlod Amir Temur shaxsini "qonxo'r", "bosqinchi" deb o'qib katta bo'ldi. Aslida shunday edimi? Bobomizning yaratuvchanlik qudrati, davlatchilikdagi islohotlari va nihoyat, o'sha davrlarda SHarqda paydo bo'lgan tamaddun haqida hech narsa deyilmadi. Albatta, bu kommunistik mafkura asorati edi. Ular bizni tariximizdan uzishmoqchi bo'lishdi. SHukrki, buyuk bobomizning nomi istiqloq davrida tiklandi. Butun dunyo tan olgan sohibqironning hayoti va faoliyatini bugun farzandlarimiz to'g'ri o'qib-o'rganmoqda. Lekin bizning shonli kechmishimiz faqat Temur va temuriylar davridan iborat emas. Millatimiz o'tmishi bir necha ming yilliklarga borib taqaladi. Demak, hali o'qilmagan, farzandlarimizga uqtirishimiz zarur bo'lgan sahifalar ko'p.

Mudofaa tizimida inson omili hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'z qasamyodiga sodiq, keng bilim va malakaga ega, aql-zakovatli, mard va azmu shijoatli harbiylar armiyaning qudratli kuchidir. G'alabani ta'minlaydigan ham, shaxsiy tarkibni tarbiyalaydigan va o'z ortidan ergashtiradigan ham harbiylardir.

Milliy ruhiyat — millatning his-tuyg'ulari, maqsad – u intilishlari, dunyoqarashi, va ma'naviy ruhiy holati hamda kechinmalarini o'zida mujassamlashtirgan tushunchadir. Milliy ruhiyat tarixiy shakllanib keladigan jarayon bo'lib, u millat taraqqiyotida hayotbaxsh manba bo'lib xizmat qiladi. Millat taraqqiyotida ma'naviy va moddiy omillar zarur va shartligi kabi Milliy ruhiyat ham muhim ahamiyatga ega.

Shu bois ham mustaqil davlatimizni taraqqiy qilgan davlatlar qatoriga olib chiqishda Milliy ruhiyatning tutgan o'rni beqiyosdir. Milliy ruhiyatning o'ziga xos xususiyatlarini bilish ayni vaqtda jamiyatda mavjud bo'lgan qator muammolarni hal qilishga, millat ijtimoiy-siyosiy hayoti jarayonlarini o'ziga xosligini aniqlash va ularga to'g'ri munosabatda bo'lishga imkon yaratadi. Milliy ruhiyat barkamol bo'lishida milliy tilning, milliy-tarixiy ongning, qaysidir darajada dinning ham ahamiyati katta bo'ladi.

Milliy ruhiyat shu sababli ko'p hollarda millat va jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi kuchga aylanib jamiyat holatini sifat jihatidan o'ziga xos tarzda o'zgartirish imkoniga ega bo'ladi. o'zbek xalqining milliy ruhiyati-yetuk. Milliy ruhiyat tarixning ko'plab sinovlarni ortda qoldirib kelajak uchun, millat ravnaqi uchun muhim ahamiyat kasb etgan omil bo'lib kelmoqda.

Moxiyatan umuminsoniyatga daxldor bo'lsa-da, qadriyatlar va an'analar milliy shaklda namoyon bo'ladi. O'zida millatning ruhini ifodalaydi. Bu xususiyatlar qarashlarimizda, ayniqsa, yaqqolrok bo'y ko'rsatadi. Zamonlar almashinadi, tafakkur o'zgaradi. Biroq har qanday holda ma'naviyat darajasi milliy ruhga ko'ra belgilanadi.

Bugungi kunda halqimiz milliy ruhni saqlab qola bilgani hamda urf-odatlarining rang-barangligida katta miqyoslarga ko'tarila olgani jihatidan jahondagi eng rivojlangan halqlar bilan ham bo'ylasha oladi. O'zbekiston Qaxramoni, xalq shoiri Erkin Voxidov nazmiy merosi bu jihatdan, ayniksa, alohida ahamiyatga ega.

Shoirning "O'zbekim" qasidasi o'sha murakkab va ziddiyatli zamonda beqiyos jasorat namunasi bo'ldi. "Yoshlik devoni" orqali zamonamizga unutila boshlagan mumtoz aruzni olib kirdi, aruzga zamon ruhini bag'ishladi. "Donishqishloq latifalari" timsolida millatga oyna tutdi. Bu oynada taraqqiyotga to'siq bo'layotgan illatlarni ro'y-rost ko'rsatdi. Kompartiya g'oyalarining jarchisiga aylangan she'riyatga milliy ruhni olib kirish yo'lida munosib xizmat kildi.

Milliy ruh tushunchasining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki u asosan, O'zbekiston xalqi ijtimoiy, hayot sohalari rivoji bilan, uning milliy-madaniy merosi, urf-odatlari, qadriyatlari, tili, madaniyati, tarixi, falsafasi, diniy ruhiyati bilan uzviy bog'liq. Milliy ruh milliylikni, milliy rivojlanish xususiyatlarini e'tirof etadi va unga hurmat bilan qaraydi. Milliy g'oya «sinfylik», «partiyaviylik» tamoyillariga asoslanmaydi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har qanday tahdid va xatarlarga munosib zarba berishga tayyor milliy armiyamiz — xalqimiz, mamlakatimizning ishonchli va mustahkam qalqonidir. Shuning uchun biz hozirgi kunda harbiy kadrlarning jangovar qobiliyati va tayyorgarligi bilan birga, vatanparvarlik tarbiyasiga jiddiy ahamiyat qaratishimiz zarur. Ya'ni, har bir askar va serjantda, ofitser va generalda, butun shaxsiy tarkibda milliy ruh va g'urur kuchli bo'lishi kerak.

Milliy ruh, bu — engilmas kuchir. Milliy ruh kuchli bo'lsa, iroda, jangovar salohiyat ham yuqori bo'ladi. Kelajakda harbiy bo'lishni orzu qiladigan botir farzandlarimiz milliy ruhni, muqaddas Vatan taqdiri uchun mas'uliyat tuyg'usini his qilishlari zarur. Ular bunday his-to'yg'uni Vatanimiz boy tarixidan, Amir Temur kabi buyuk ajdodlarimiz jasoratidan oladi. O'z oilasi, mehribon ota-onasi hamda el-yurtimizning ishonchi, g'amxo'rliги va e'tiboridan oladi. Yoshlarga hamisha o'rnak va namuna bo'lib kelayotgan chinakam fidoyi harbiylardan oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida axloqiy-ruhiy ta’minoti tizimini takomillashtirish masalalari” mavzusida forum materiallari, Toshkent shahri – 2020 yil 26-noyabr;

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Vatan himoyachilari kuni va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining 27-yilligi munosabati bilan bayram tabrigi, Toshkent shahri – 2019 yil 14-yanvar.

RAHBARLIK PSIXOLOGIYASI, XODIMLARNI BOSHQARISHNING MOHIYATI VA ASOSIY BOSQICHLARI

Nurmatov Botirjon Xusanovich

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Kichik mutaxassislar tayyorlash markazi, taktika sikli katta o‘qituvchisi podpolkovnik

Nutfiyev Ikrom Izzatullayevich

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Kichik mutaxassislar tayyorlash markazi, taktika sikli o‘qituvchisi podpolkovnik

Annotatsiya. Ushbu maqolada rahbarlarning boshqaruvchanlik qobiliatlari, harbiy jangovar vazifalarni bajarishda shaxsiy tarkibni yetaklay olishi va psixologiyasi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: boshliq, ishchanlik, yetaklovchi, qobiliyat, taraqqiyot, jamiyat, omil, ob‘yektiv, etika.

Butun xalqimizning taqdiriga daxldor muhim masalalardan biri - iqtisodiyotni, xalq xo‘jaligi va xalq ta’limini, sog‘liqni saqlash, madaniyat va sportni boshqarish, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish muammosidir. Bu ayni chog‘da rahbarlikning samarali yo‘llarini topish, boshqaruv tizimini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish mamlakatimiz taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari etib belgilangan.



Chunki jahonning eng rivojlangan mamlakatlarida ham taraqqiyotga aynan shu yo‘l bilan erishilgan. Binobarin, jamiyatimizda rahbarlik faoliyati to‘g‘ri rejalashtirilsa,

davlatimiz va xalqimiz oldida turgan ko‘plab muammolar o‘z yechimini topib, yurtimiz obod, turmushimiz farovon bo‘lishiga shak-shubha yo‘q.

Lekin ochig‘ini aytganda, jamiyatimizda rahbarlik faoliyati va uning samarasi talab darajasida emasligi ayon bo‘lib qolayotir. Buning har xil ob‘yektiv va sub‘yektiv omillari bor albatta. Sub‘yektiv omillardan biri shuki, jamiyat a‘zolaridan bir qismining ongi, dunyoqarashi hali boshqaruv faoliyatiga tayyor emasga o‘xshayapti. Rahbarlikning mohiyatini, maqsad va vazifalarini tushunmaslik oqibatida ayrim yetakchilar o‘z faoliyatiga loqayd munosabatda bo‘lmoqdalar. Ba‘zi kishilar esa boqimandalik kayfiyatidan to‘la qutilgan emas.

Rahbarlik tushunchasiga quyidagicha ta‘riflarni keltirish mumkin:

1. Rahbar ijtimoiy shaxs sifatida ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarishresurslarini birlashtirib, uning asosiy harakatlantiruvchi kuchini boshqaruvchi sifatida omilkorlik bilan ish yurituvchi shaxsdir.

2. Rahbar har qanday ishni amalga oshirish uchun, avvalo, mustaqil qaror qabul qiladi. Bu qapop rahbarning tadbirkorlik, ishbilarmonlik faoliyati maqsadini belgilaydi.

3. Rahbar o‘z sohasiga yangi g‘oya, yangi tashabbus, yangi texnologiyalarni joriyetuvchi tadbirkor shaxs hisoblanadi.

4. Rahbar mehnati, ayni vaqtda tadbirkorlikka asoslangan mashaqqatli faoliyat hisoblanadi. Unga sarflangan kuch, mablag‘ ba‘zan vaqtincha foyda emas, zarar keltirishi, muassasa foyda o‘rniga zarar ham ko‘rishi mumkin. U bunday holatlarni oldindan ko‘ra olishi va bunga tayyor



turishi, zarur bo‘lganda, faoliyatini qayta boshlashi, o‘zida bunga kuch-gayrat topa bilishi lozim.

O‘zaro munosabatlarda rahbarlarning bir-birini to‘g‘ri tushuna olishiga imkon bermaydigan, har xil kelishmovchiliklarga olib keladigan omillar ham bor. Bunday to‘siqlarning eng ko‘p uchraydigan uch xilini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Bular:

- 1) dastlab ko‘rishganda bir-birini tashqi qiyofasi bo‘yicha o‘zidan ustun ko‘rish yoki uniyoqtirmaslik;
- 2) sherik bilan dastlabki muloqotda uning muhim fikrlariga qushilmaslik va hokazo;
- 3) dunyoviy tasavvurlari, maqsad va mulohazalari, ijtimoiy barqarorligi mos kelishiyoki aksincha va hokazo.

O‘z muassasasi a‘zolarining xatti-harakatlaridan voqif bo‘lmaslik jamoaning bir necha tarafga bo‘linishiga olib keladi. Bunday rahbar davlatga ham, jamoasiga ham zarar keltiradi.

Muammoning ko‘yilishi. Shaxs tushunchasi psixologiya fanida markaziy o‘rinni egallaydi va asosiy psixologik talqinlar shaxs mavzusi atrofida amalga oshadi.

Shaxsning turli ta‘riflari mavjud, lekin bu tushunchani to‘laroq aks ettiradigan quyidagisi o‘rinli: «Shaxs bu — o‘zining bilimi, hissiyoti va munosabatlari orqali tashqi olamni o‘zgartira oluvchi sub’yekt, insondir».

E‘tibor berilsa, ushbu ta‘rifda shaxsga xos uch jihat sanab o‘tiladi:

1. Bilish.
2. Xissiyot.
3. Munosabat.

Shu uch guruhga kiruvchi xislatlar yagona maqsadga, ya‘ni tashqi olamni insonning o‘z extiyojiga binoan o‘zgartirishga qaratilgan.

Ishlab chiqarish sharoitida inson xulqini tushunish va uni boshqarish uchun shaxs tabiati xaqida ma‘lum bir ma‘lumotga ega bo‘lish kerak.

Aniqlanishicha, Yaponiya qayta ishlab chiqarish yirik kompaniyalari rahbarlarining o‘rtacha yoshi 63,5 bo‘lsa, shu toifa amerikalik rahbarlarning yoshi 59 da ekan. Yaponiya yirik kompaniya rahbarlarini o‘rganishda uchraydigan va taajjublanarli jihatlardan biri, ularning yoshi ulug‘ligidir. Ba‘zi bir tashkilotlarda (masalan, «Soni korporeyshn») kompaniya prezidentining yoshi 65 deb cheklangan bo‘lsa-da, lekin ko‘pgina avtomobil sohasidagi firma rahbarlarining yoshi 75 va undan yuqoriligi ajablanarli hol emas. Bu sohada o‘tkazilgan tadqiqotlar shundan dalolat

beradiki, katta yoshli rahbarlar, agar ularning sogʻligi koʻngildagiday boʻlsa, ushbu tashkilot uchun katta tajriba manbaidir.

Yosh rahbar boshqaradigan tashkilotdagi xodimlarning oʻrtacha yosh koʻrsatkichi koʻpincha past boʻladi. Yoshlik (30-35 yosh atrofida) bu yangilik va kashfiyotlarga moyillik, ijodiylik, qoʻrqmaslik va oʻzgaruvchan muhitga moslashuvchanlik bilan ifodalanadi. Afsuski, bunday tashkilotda katta yoshdagi (40-45 dan yukori) xodimlarga, hatto, shubha bilan qarashadi. Lekin, aniqlanishicha, inson 35-55 yoshlarida oʻz kasbining mohir ustasiga aylanadi, oʻz sohasidagi bilimni yaxshi egallaydi va ihtirolarni joriy etishga oʻzida ishtiyoq sezadi. Shu bilan birga, unda vaziyatni sovuqqonlik bilan tahlil etish, vazminlik kayfiyati shakllanadi.

Albatta, hamma yosh rahbar ilgʻor texnologiya tarafdori va shunga moyil deb aytish kiyin, lekin yoshlarga zamonaviylik xos. Bu esa oʻz navbatida, yosh rahbarning zamonaviy va ilgʻor ishlab chiqarish uslublariga murojaat etish ehtimolini kuchaytiradi. Xalkimizda, yoshi katta boʻlsa ham koʻngli yosh degan ibora bor. Demak, zamonaviy rahbar yoshidan qatʼi nazar ilgʻor texnologiyalar tarafdori, tashkilot miqyosida zamonaviy ishlab chiqarishni joriy etishga qobiliyatli boʻlishi lozim. Bu esa oʻtash davri talabidir.

Mamlakatimizda tadbirkorlik va davlat boshqaruvi sohasida ayollarga katta yoʻl ochilgan. Ammo, shunga qaramay, rahbar soʻzi koʻpincha erkak jinsi bilan qiyoslanadi va negadir, ayol rahbar idora etadigan sohalar sifatida maorif, sogʻliqni saqlash, aholiga xizmat koʻrsatishdan nariga oʻtilmaydi.

Xulosa qilib aytganda liderlikning asosiy jihatlaridan biri – guruh manfaati haqida gʻamxoʻrlikdir. Shuning uchun ham liderlik taʼrifidagi asosiy maʼno kasb etuvchi tomonlar bu – shaxsning ushbu vaziyatni muvaffaqiyatli hal eta olish qobiliyati va guruh manfaati yoʻlidagi jonbozligi deb tushunilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Adolat, vatan va xalq, manfaati har narsadan ulug‘. - T.: «Uzbekiston»,1998.
2. Axlidinov R.Sh., Oldroyd D., Xodjayev A. Uzbekistonda ta’limni boshqarish: muammolar, izlanishlar, yechimlar. - T.: «TACIS-PROJECT», 1999.
3. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish,boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Pedagogika fanlari doktori ... diss. - T., 2007.

COPING BEHAVIOR OF STUDENTS TO OVERCOMING STRESS IN THE LEARNING PROCESS

Askarova Gulrukh

Lecturer at the Department of Practical Psychology
TSPU named after Nizami

Abdullaev Rakhmonjon

4th-year student of the Faculty of Pedagogy and Psychology
TSPU named after Nizami

Abstract: *This article examines an important aspect of student life - coping behaviors used by students to overcome stress in the educational environment. The paper analyzes various aspects of coping behavior, including both active and passive strategies, and their impact on the learning process and overall student experience.*

Key words: *Coping behavior, strategies for coping with stress, students, educational environment, active strategies, passive strategies, academic success.*

КОПИНГ-ПОВЕДЕНИЕ СТУДЕНТОВ ДЛЯ ПРЕОДОЛЕНИЯ СТРЕССА В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация: *В данной статье рассматривается важный аспект студенческой жизни – копинг-поведения, применяемые студентами для преодоления стресса в учебной среде. В работе анализируются различные аспекты копинг-поведения, включая как активные, так и пассивные стратегии, и их воздействие на процесс обучения и общий студенческий опыт.*

Ключевые слова: *Копинг-поведение, стратегии преодоления стресса, студенты, образовательная среда, активные стратегии, пассивные стратегии, академическая успешность.*

Introduction. Student life is associated with various challenges and stresses. Introduction to the issue of coping behavior, the role of stress coping strategies in the educational environment, and their impact on the overall student experience. Currently, the issue of coping with stress is becoming crucial in the modern educational system. It is particularly important how an individual copes with stress during adolescence, when faced with numerous crises. Maladaptive coping methods with difficulties can lead to negative consequences, and if they become habitual and entrenched, they can impact psychological well-being and adaptation in future adult life.

Coping behavior encompasses a set of strategies and mechanisms that an individual uses to deal with various stressors and difficulties in life. This term covers a wide range of adaptive responses to stress, including cognitive, emotional, and behavioral strategies. Key aspects of coping behavior include awareness of stressors, the selection of effective strategies, and their implementation with the goal of achieving psychological balance [1].

Methodology. Coping behavior has been studied by researchers such as Richard Lazarus and Susan Folkman, who are among the leading experts in the field of coping behavior. Their work "Stress, Appraisal, and Coping" has been a key contribution to understanding stress coping strategies and their impact on adaptation to situations [3]. John Smith and Maria Johnson are also notable researchers whose work, particularly "Coping strategies and academic stress in university students," sheds light on various coping strategies among students and their influence on academic stress [5]. These researchers have provided valuable scientific insights into coping behavior, contributing to the understanding of how individuals cope with stress in educational environments.

According to T.L. Kryukova, coping behavior differs from psychological defense in that it is a conscious strategy of actions. It is aimed at eliminating threats, overcoming obstacles, and better adapting the individual to the demands of the situation. It is important to note that coping helps transform the situation in line with

the person's intentions or, in cases where changing circumstances is not possible, helps endure and tolerate them [2].

Review of classifications of strategies, active and passive approaches to overcoming stress:

Active strategies: Active coping strategies involve direct intervention with stressors and the search for practical solutions to the problem. These include strategies aimed at changing the situation, such as seeking support, action planning, and information seeking. Lazarus and Folkman's research highlights the effectiveness of problem-focused coping, which activates individual resources to address difficulties.

Passive strategies: On the contrary, passive coping strategies involve avoidance or alleviation of emotional consequences of stress without directly addressing the source of the problem. This may include self-soothing, avoidance, and denial strategies. Smith and Johnson's research emphasizes that these strategies may be associated with increased stress levels among students and reduced ability to effectively cope with difficulties.

Results. The coping behavior of students, which involves the selection and application of stress coping strategies, depends on a multitude of factors. Analyzing these factors allows for a better understanding of why students choose specific strategies and what factors influence the effectiveness of their coping behavior.

Social support plays a key role in the coping behavior of students. Support from friends, family, and peers can serve as an emotional buffer in stressful situations. Research shows that students with strong social support more often utilize active coping strategies, such as seeking support and expressing emotions [7].

Individual personality traits, such as self-efficacy, optimism, and restraint, can also influence the choice of coping strategies. For example, students with high levels of self-efficacy often prefer active strategies because they believe in their ability to effectively solve problems [4].

Features of the educational environment also significantly impact students' coping behavior. The intensity of academic workload, support from teachers, and the

availability of resources for students – all these factors can influence the choice of strategies. For instance, students facing high levels of academic stress may more frequently resort to avoidance strategies [5].

Discussion. Analyzing these factors allows for better adapting approaches to student support, creating more effective programs and resources for managing stress in the educational environment.

Problem-focused coping involves active efforts to change the situation or resolve the problem. This may include seeking information, action planning, and seeking support. Research indicates that problem-focused coping is associated with more effective adaptation to stressors and improved psychological well-being [3].

Active strategies can also include expressing emotions and seeking support. Sharing feelings with others can help reduce emotional tension and receive support, which, in turn, contributes to adapting to stress.

Passive strategies, such as avoidance, involve avoiding direct confrontation with the problem or stressor. While this may temporarily reduce stress levels, in the long run, it may lead to worsened emotional states and social adaptation. Avoidance may also reduce problem-solving effectiveness.

Passive strategies can also include self-soothing, which involves comforting oneself without actually solving the problem. This may provide short-term relief but does not address the source of stress, which can ultimately worsen the situation.

Active strategies are generally considered more effective in the long run as they are directed towards problem-solving. Problem-focused coping is particularly associated with psychological well-being and successful stress coping. While passive strategies may provide temporary relief, they may exacerbate the problem in the long term.

However, the effectiveness of a strategy depends on the context and individual characteristics. For example, avoidance may be useful if the situation cannot be changed, and it is better to focus on what is within our control. It is important to balance and combine strategies depending on the specific situation.

Problem-focused coping, actively directed at solving the problem, is often associated with higher academic performance. Research [4] suggests that students resorting to active strategies such as planning and information seeking cope more successfully with educational challenges and achieve higher grades.

On the other hand, students using passive coping strategies, such as avoidance and self-soothing, may face negative consequences for their academic performance. Studies [5] indicate that avoiding problem-solving and using strategies not actively resisting stress are associated with lower grades and less success in studies.

Emotional expression and regulation are also crucial for academic success. Students who can adaptively express and manage their emotions may better cope with the pressure and stress of the educational environment, contributing to their success in studies.

Research also emphasizes that effective coping behavior may involve a combined approach, incorporating elements of both problem-focused and emotional coping. Being able to effectively solve problems and emotionally cope with challenges contributes to successful stress resistance and improved academic performance [6].

Conclusions. Based on the analysis conducted, the following recommendations can be proposed for students on effectively applying coping strategies in the educational environment:

Familiarize yourself with and master various coping strategies, including problem-focused coping, emotional expression, and active stress management. Create your unique set of strategies adapted to your personal characteristics.

Actively engage with your social network. Communication with friends, family, and peers can be a powerful resource in the coping process. Share your feelings and seek mutual understanding.

Develop skills in rational planning and time management. Efficient distribution of academic and personal activities can help reduce stress levels and enhance organizational skills.

Strive to develop emotional intelligence, the ability to manage your emotions, and effectively regulate their expression. This will be beneficial not only in academic pursuits but also in life in general.

Seek professional support when needed. Psychological services and counseling can provide additional resources for effectively coping with stress.

In conclusion, effective coping behavior plays a key role in successfully dealing with stress in the educational environment. Diverse strategies, including active and emotional approaches, provide students with the ability to adapt to various situations.

Research in this field emphasizes that a conscious choice of strategies and their combination can significantly increase well-being and academic performance. Effective coping behavior is an integral part of the student experience, and developing these skills is crucial for achieving success in both education and life.

Bugungi kunda turizm dunyoning eng yirik va tez sur'atlarda rivojlanayotgan sohalaridan biri bo'lib, mamlakatlar va mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tezlashtirishda muhim o'rin tutmoqda. So'nggi yillarda yurtimizda turizmga bo'lgan e'tibor davlat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri sifatida baholanmoqda. Jahon Sayyohlik va Turizm tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yilda turizmning jahon yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 10,3 foizi, jami ish o'rinlarining o'ndan bir qismi, ya'ni 330 million (2018 yilda 319 million) ish o'rni yoki umumiy ish o'rni hajmining 10,4 foizi aynan shu soha hissasiga to'g'ri kelmoqda. Ketma-ket to'qqiz yil davomida turizm sohasidagi yalpi ichki mahsulotining o'sishi jahon yalpi ichki mahsulotining o'sishidan yuqori bo'ldi. Xususan, 2019-yilda turizm sohasida yalpi ichki mahsulotining o'sishi 3,5%ni, jahon yalpi ichki mahsulotning o'sishi esa 2,5%ni ko'rsatmoqda¹. Samarqand 2750 yoshda, ammo odamlar aytganidek, u "abadiy" yosh". Bu yerda 1500 dan ortiq qadimiy yer osmoni ostida joylashgan me'moriy yodgorliklar va ibodat joylari. 2001

¹ RAXIMOVA N.A, MANSUROVA N.SH., RAXIMOV Z.A. SAMARQAND VILOYATI TURISTIK SALOHİYATINING TAHLILI. ИҚТИСОД ВА МОЛИЯ / ЭКОНОМИКА И ФИНАНСЫ 2022, 6(154).b.44

yilda Samarqand YUNESKO merosi ro'yxatiga "madaniyatlar chorrahalar" nomi bilan kiritilgan. Samarqandni chinakam noyob shahar, deb atash mumkin! Amerika Qo'shma Shtatlaridagi nufuzli "The Huffington post" nashri tomonidan Samarqand shahri jahondagi inson o'z umri davomida albatta borib ko'rishi shart bo'lgan 50 ta shaharlardan biri deb e'lon qilinishi, ko'plab xorijiy turistlarni yanada jalb etish imkonini yaratadi. Dunyoning eng buyuk shoir va faylasuflari uni - qalb bog'i, sharq durdonasi, dunyoning ko'zgusi va hatto yer yuzi deb atashganlarida ham, ular bu go'zal shaharning barcha go'zalligi va boyliklarini tasvirlab berolmagan bo'lardilar. Bu hududda 148 dan ortiq tarixiy-arxitektura yodgorliklari aniqlangan. Shu sababli Samarqandni "Ochiq osmon ostidagi muzey" deb atashadi. Buyuk ipak yo'lida joylashgan Samarqand o'zining tabiiy-jo'g'rofiy joylashishi, shirin mevalari, zilol suvi, mehmondo'st-bag'rikeng xalqi hamda savdo imkoniyatlari bilan azal-azaldan jahon e'tiborini o'ziga tortib kelgan. Mashhur arab sayyohi Ibn Battuta o'zining "Sayohatnoma asarida "Dunyoda Samarqand kabi havosi musaffo, osmoni moviy, zamini ko'm-ko'k, suvi zilol, aholisi go'zal xulqli va xorijdan kelgan insonlarga muhabbat va do'stona munosabat qiladigan jannatmonand shaharni ko'rmadim¹", deya ta'rif etadi. Samarqand viloyatida jami 1607 ta tarixiy-madaniy meros obyektlari mavjud. Shulardan 975 ta arxeologiya madaniy meros obyekti, 562 ta arxitektura, 36 ta monumental san'at yodgorligi va 34 ta diqqatga sazovor joylar mavjud². Samarqand viloyatidagi jami tarixiy madaniy meros obyektlari Respublikamizda mavjud tarixiy-madaniy meros obyektlarining qariyb 20 foizini tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan aytishimiz mumkinki, Samarqand viloyati respublika viloyatlari ichida tarixiy-madaniy turizm salohiyati bo'yicha asosiy o'rinda turadi. Samarqand viloyatiga 2016-yilda 76,2 mingta xorijiy fuqaro tashrif

¹ Т.Ш. Эвадуллаев. САМАРҚАНДДА ЗИЁРАТ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНИШИДА МУҚАДДАС ҚАДАМЖОЛАРНИНГ ЎРНИ. "ЎЗБЕКИСТОННИ ТОП ЎН ТУРИСТИК ХУДУДЛАР ҚАТОРИГА КИРИТИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ: БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШ ИМКОНИАТЛАРИ" мавзусидаги халқаро онлайн илмий-амалий анжуман материаллари тўплами.. Б 2020.Б.81

² Махмудов С.Х. Самарқанд вилояти баъзи тарихий-маданий туристик объектларнинг молиявийиқтисодий кўрсаткичлари таҳлили. ЎЗБЕКИСТОННИ ТОП ЎН ТУРИСТИК ХУДУДЛАР ҚАТОРИГА КИРИТИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ: БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШ ИМКОНИАТЛАРИ" мавзусидаги халқаро онлайн илмий-амалий анжуман материаллари тўплами.. Б 2020.Б.161

buyurgan bo'lsa, 2017-yilda bu ko'rsatkich 179,6 mingtaga yetdi va respublika bo'yicha atigi 7,0 foizni tashkil etdi¹.

Bilamizki, turizmning yo'nalishlari ko'p tarmoqli bo'lib, masalan, Misrda ko'proq arxitektura yo'nalishi, Turkiyada esa gastronomik turizm yevropaning aksariyat mamlakatlarida to'g' turizmlari rivojlangan. Shunga muvofiq tarzda O'zbekistonda ham so'nggi yillarda olib borilgan keng ko'lamlı islohotlar natijasida Turizmning ko'plab yo'nalishlari jumladan, Ziyorat turizmi, gastronomik turizm, me'morchilik turizmi kabi yo'nalishlarda katta ishlar qilindi. Jumladan, mutafakirlarning yubeylari asnosida ularning qayta ta'minlanishi bunda xalq qiluvchi ro'l o'ynadi. Hadis ilmining ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan yirik alloma, buyuk vatandoshimiz Imom al-Buxoriy ilmiy-diniy merosining xalqimiz ma'naviy-ruhiy hayotidagi beqiyos o'rnini va mamlakat keng jamoatchiligining takliflarini hisobga olib hamda ushbu merosni asrab-avaylash, qadrlash va jamiyatning barkamol kishilarini tarbiyalashda undan oqilona foydalanishga shart-sharoit yaratish maqsadida 1998-yilda Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo'yicha 1225 yilligi mamlakatimizda keng nishonlanishini Vazirlar Mahkamasi qaror qildi², Abu Mansur Moturidiyning 1130-yilligi, Xoja Axror Valiyning 600-yilligi nishonlandi. Ushbu tadbirlar davomida Samarqanddagi buyuk allomalar mangu qo'nim topgan Chokardiza qabristoni obod etilib, Moturidiy xazratlarining qabrlari ustida maqbara qayta qad rostladi. Shuningdek, Mirzo Ulugbek rasadxonasi xududida yangi muzey binosi, keng maydon va so'lim xiyobon barpo etildi. Ziyorat turizmi Vatanimizning deyarli barcha viloyatlarida o'z rivojlanish imkoniyatlariga ega, ayniqsa, Samarqand viloyatida ushbu turizm yuksak taraqqiy etgan. Chunki Samarqandda ko'pla tarixiy inshootlar va ziyoratgohlar mavjud va ular jahon turistlarini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Ziyorat turizmi bo'yicha jahon reytingida O'zbekiston so'nggi yillar ichida 34-o'rindan 9-

¹<https://lex.uz/>. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 16.03.2018 yildagi PQ-3609-son

² https://lex.uz/IMOM_AL-BUXORIY_TAVALLUDINING_HIJRIY-QAMARIY_TAQVIM_BO'YICHA_1225_YILLIGINI_NISHONLASH_TO'G'RISIDA. Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 29-apreldagi 217-son qarori.

o‘ringa ko‘tarilib oldi¹. Samarqand ziyorat turizm sohasida ulkan salohiyatga ega bo‘lgan viloyatlardan hisoblanadi. Samarqand shahridagi Xo‘ja Doniyor, Imom Moturidiy, Xo‘ja Abdu Darun, Hazrati Xizr, Murod Avliyo ziyoratgohi, Shohi Zinda yodgorlik majmuasi, Ruhobod maqbarasi, Xo‘ja Is‘hoqi Valiy masjid-ziyosatgohi, shuningdek, Samarqand tumanidagi Xo‘ja Ahror Valiy, Xo‘ja Abdu Berun, Oqdaryo tumanidagi Mahdumi A‘zam, Jomboy tumanidagi Shayx Xudoydod Vali va Bulung‘ur tumanidagi Xo‘ja Hofiz Merosiy, Nurobod tumanidagi Hazrati Dovud ziyoratgohi, Payariq tumanidagi Imom Buxoriy majmuasi, Urgut tumanidagi Chor Chinor ziyoratgohlari joylashgan. Bu ziyoratgohlar Samarqand turistik salohiyatini yanada oshirmoqda. Shunga qaramay turizm sohasini rivojlanishiga to‘siq bo‘layotgan omillar ham bordir. Ularga viza tizimidagi to‘siqlar, ortiqcha rasmiyatchiliklarning borligi sayyohlar oqimiga salbiy tasir etadi. To‘g‘ri so‘nggi yillarda 90 ga yaqin mamlakatga viza tizimi ochildi lekin bu yetarli darajada emas. Samarqand viloyati misolida ba‘zi bir kamhiliklar haqida ;

-deyarli barcha obyektlar yo‘l ustida joylashganligi o‘z navbatda turizmning rivojlanishiga olib kelmoqda. Turistlar uchun alohida avtobuslar tashkil etilgan. Lekin yengil avtomobillar yo‘q . Bu mashinalar sonini oshirish kerak

-viloyatda tarixiy –me‘moriy va diniy ziyorat turizmni rivojlangan. Bu holat viloyatga tashrif buyurgan chet ellik sayyoh 10-15 kunda albatta zerikadi. Bu hududda o‘zining milliyligi bilan boshqa istirohot bo‘glarida ajralib turadigan istirohot bog‘lari, zamonaviy binolar barpo etilsa bu ham turistlar oqimini yanada oshiradi

-viloyatda umumiy ovqatlanish joylari faoliyatini tashkil qilishga e‘tiborni yanada kuchaytirish lozim. Chunki, har bir xalqning milli taomlari bo‘lganidek, o‘zbek xalqining ham bir qancha milliy taomlari mavjud. Masalan, yevropaliklar birinchi marta ko‘rayotgan ovqatini oldin yaxshilab o‘rganib, tayyorlanish texnologiyasini ko‘rib, keyin iste‘mol qiladi. Balki ular o‘zlarining Yevropa

¹ Turdiyev M SAMARQAND VILOYATIDA ZIYORAT TURIZMINING TARIXI VA ISTIQBOLLARI. Международный научный журнал часть I «Научный импульс».2023.В.676

taomlarini iste'mol qilishni xohlashar yoki, turistlar orasida vigiterianlar bor bo'lishi mumkin. Shularni inobatga olgan holda restoran va kafelarda turli xil davlatlarning kamida bir turdagi ovqatlarini tayyorlash yo'lga qo'yilsa, ularning xizmat ko'rsatish darajasi yaxshilansa, sayyohlarning ehtiyojlari o'z vaqtida qondirilsa, viloyatga tashrif buyurgan sayyohlar mamnun bo'lishadi. Bu esa turistlar oqimining oshib borishiga sabab bo'ladi

- viloyatga kelayotgan turistlar uchun yaratilgan xizmatlar va mehmonxonalarga qo'yilgan narxlar bir muncha yuqori. Bu turistlar sonining keskin kamayishiga olib kelishi mumkin. Mehmonxonalarga chegirmalar qo'yilsa yaxshi bo'lar edi.

- Sayohatchilarni kundalik ekskursiyadan keyingi vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida ko'proq tadbirlar uyushtirish zarur. Samarqandga kelayotgan turistlarning aksariyat qismi Yevropa mamlakatlaridandir. Shu bois ularning kuy-qo'shiqlari yangrab turuvchi tadbirlar tashkil qilish har bir turist uchun o'zgacha zavq bag'ishlaydi. Bir narsani aniq aytish mumkinki, turistlar ichida asosan nafaqa yoshidagi kishilar 90-95 % ni tashkil qiladi.

-umuman olganda turistlar tashrif buyuradigan joylarga wf tizimini yo'lga qo'yishni joriy etish kerak. Turistlarga yo'l boshchilik qilayotgan gidlar sonini ham yana ko'paytirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Raximova N.A.Mansurova N.Sh. Samarqand viloyati turistik salohiyatining tahlili .T.2022.
2. Samarqandda ziyorat turizmini rivojlanishida muqaddas qadamjolarining o‘rni “ O‘zbekistonni to‘p 10 turistik xududlar qatoriga kiritish istiqbollari va barqaror rivojlanishimkoniyatlari” mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy amaliy anjuman materiallari .b.2020
3. Исматуллаев, Ф., & Ахмедова, С. (2019). ЎЗБЕКИСТОН–ИТАЛИЯ ҲАМКОРЛИГИНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ. Scientific journal of the Fergana State University, (1), 28-28.
4. Ismatullaev, F. (2010). International cooperation in the field of tourism. F Ismatullaev. Society and Management N, 2.
5. qizi Juraqulova, F. T. (2024). O ‘ZBEKISTONNING JAXONGA TURIZM MAMLAKATI SIFATIDA OCHILISHI. GOLDEN BRAIN, 2(2), 156-161.

PEDAGOGNING KASBIY KOMPETENTLIGI VA UNI AMALIYOTDA QO‘LLAY OLISH MAHORATI

Xolmirzayev Shavkat Qurbon o‘g‘li

Termiz davlat universiteti ijtimoiy fanlar fakulteti

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Imomqulov Rasul Raxmonovich

Termiz davlat unversteti ijtimoiy fanlar

fakulteti ijtimoiy ish kafedrası

Pedagogika fanlar nomzodi dosent

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada pedagogning kasbiy kompetentligi va unda aks etuvchi sifatlar, kasbiy kompetentlikni egallash jarayonidagi qiyinchiliklar, egallagan kompetensiyalarini amaliyotda qo‘llay olishi va bu orqali ta‘lim oluvchilarga samarali ta‘lim berishni amalga oshirish, ta‘lim jarayoniga o‘quvchilarni jalb qilishda kompetentlikdan to‘g‘ri foydalanish masalalari haqida so‘z boradi.*

***Kalit so‘zlar:** pedagogika, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, bilim, ko‘nikma, malaka, amal, metodik, pedagogik jarayon, o‘z o‘zini baholash, o‘z ustida, ishlash, amaliyot.*

KIRISH

Hozirgi globallashuv davrida barcha sohalar singari pedagogika tizimi ham jadal sur‘atlarda rivojlanib bormoqda. Yurtimizda ham pedagogika sohasini rivojlantirish, bu sohada yetuk pedagogik kadrlarni yetishtirish bo‘yicha ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, bu borada pedagogika universitetlarida pedagogika fanlar tizimini chuqurlashtirilgan tartibda o‘tish, yangi pedagogik kadrlarni kasbiy kompetentligini oshirish, ularni to‘liq kasbiy kompetensiyalar bilan ta‘minlash ishlari

tizimli bosqichlarda ro'yobga chiqmoqda. Hozirgi kunda pedagog kadrlarda, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, bu orqali yosh avlod kelajagi uchun mustahkam poydevor yaratish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda pedagogning kasbiy kompetentligi, uning o'ziga xos sifatlari alohida o'rganilgan bo'lib ular orasida M.S.Salayeva olib borgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizini quyidagi tarkibiy asoslar tashkil etadi [5]. Kasbiy-pedagogik kompetentlikdan ega bo'lishda o'z ustida ishlash, o'z-ozini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi [8].

METOD VA METODOLOGIYA

“Kompetentlik (ingl. “Competence”- qobiliyat) faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bolgan bilim, konikma va malakalar-ning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi [9]. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yonalish boyicha integrativ bilimlar va harakatlarning ozlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni orga-nishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi malumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va oz faoliyatida qollay bilishni taqozo etadi [10]. Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon boladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid malumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda [11].

Biz har bir pedagogni ham kasbiy kompetentlikka to'laqonli ega deb aytolmaymiz. Kasbiy kompetentlikka ega bo'lgan pedagog o'z bilimlarini izchillik bilan boyitib boradi, kreativlikka intiladi, yangi axborotlarni tinimsiz ravishda o'zlashtirib boradi, takrorlanmas bilimlarni izlab topadi, davr bilan hamnafas yuradi,

bilimlarni qayta ishlaydi va ularni amaliyotda qo'llashning samarali yo'llarini o'ylab topadi [12]. Bilamizki, pedagogik kompetentlik pedagogik jarayon asosida namoyon bo'ladi. Qachonki pedagogik jarayon to'g'ri vujudga kelsagina ta'lim beruvchi o'z kompetentligini samarali qo'llay oladi. Xo'sh o'zi pedagogik jarayon nima? Shu tushuncha haqida bilib olamiz. Pedagogik jarayon - zarur bo'lgan bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalar, shaxs va guruhning axloqiy-siyosiy, psixologik va jismoniy sifatlarini shakllantirish maqsadida insonlar tomonidan (ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi) tashkil etilgan va yo'naltirilgan faoliyat. Pedagogik jarayon boshqa ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liq bo'ladi [13].

TADQIQOT NATIJASI

Shunday ekan, ta'lim oluvchini har bir ijtimoiy jarayondan xabardor qilish, pedagogik jarayonni boshqa jarayonlar bilan uzviy tarzda bog'lash uchun kasbiy kompetentlik bir nechta sifatlarni o'zida namoyon qilgan bo'lishi kerak. Ana endi kasbiy kompetentlik sifatlari haqida so'z yuritamiz.

1. Ijtimoiy kompetentlik - ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik - kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bolib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi [14]. Ular o'zida quyidagi mazmuni ifodalaydi:

a) psixologik kompetentlik pedagogik jarayonda soglom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va talim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

b) metodik kompetentlik - pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, talim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash;

c) informatsion kompetentlik axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali malumotlarni izlash, yigish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish;

d) kreativ kompetentlik - pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

e) innovatsion kompetentlik - pedagogik jarayonni takomillashtirish, talim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi goyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish;

f) kommunikativ kompetentlik - jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bolish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy tasir ko‘rsata olish.

g) shaxsiy kompetentlik - izchil ravishda kasbiy o‘shishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

h) texnologik kompetentlik - kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilgor texnologiyalarni ozlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

i) ekstremal kompetentlik - favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘gri harakatlanish malakasiga egalik [15].

MUHOKAMA

Har bir pedagog o‘z kasbiy kompetentligiga ega bo‘ladi. Bu orqali u pedagogik jarayonda ishtirok etadi. Bu jarayonning faol ishtirokchisiga aylanish uchun esa yuqoridagi sifatlarni o‘zida aks ettirishi lozim. Kasbiy kompetentlikning barcha sifatlarini to‘la to‘kis o‘zida mujassam etgan pedagog ularni amaliyotda qo‘llash jarayonini ham bexato yo‘lga qo‘yishi lozim [16]. Qachonki o‘z bilimlarini ta’lim oluvchiga kasbiy kompetentligini qo‘llagan holdagina yetkazib bersa, bu pedagogni ta’lim jarayonida chinakam yutuqqa erishgan deya olamiz. Biz mutaxassis ya’ni pedagogni kasbiy kompetentligini oshirishi uchun o‘z o‘zini tahlil qilishi, o‘z ustida

ishlashi va o'z o'zini baholay olishi kerak degan edik. Bular orasida o'z ustida ishlash yaqqol mohiyat kasb etadi. Mutaxassisning o'z ustida ishlashi quyidagilarda ko'rinadi:

- kasbiy BKMni takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondoshish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
- ijobiy sifatlarni o'zlashtirish [17].

Bundan ko'rinib turibdiki, har bir bo'lajak pedagog o'z kasbiy kompetentligini anglab yetishi, o'z ustida tinimsiz ishlashi, o'zini o'zi baholay olishi, ta'lim jarayoning jadal sur'atlarda o'sishini ta'minlashi kerak [18]. Qachonki pedagog o'zini to'g'ri va xolis baholay olsagina, u o'z sohasida yetuk mutaxassis bo'lib yetishadi.

XULOSA

Ushbu maqoladan ko'rinib turibdiki, kasbiy kompetentlik nafaqat pedagogika balki boshqa mutaxassisliklarda hma muhim o'rin tutadi, lekin bizning asosiy yo'nalishimiz bo'lgan pedagogika sohasida kasbiy kompetentlikni yuksak darajada egallash, bu orqali pedagogik jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish dolzarb masala hisoblanadi. Shunday ekan har bir ta'lim beruvchi o'zining kompetensiyalarini to'g'ri anglay olishi va uni amaliyotda to'g'ri va maqsadli qo'llay olishi darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RŌYXATI.

1. Kulboyeva D.A., Tursunova M.B. FORMATION OF CREATIVE ABILITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 2021. 9(12), 633-637.

2. Hayitov A.I., Abdushukurova D. EFFECTIVE WAYS TO ORGANIZE MOTHER TONGUE LESSONS IN PRIMARY CLASSES ON THE BASIS OF INTERACTIVE TECHNIQUES. 2022. Conferencea, 30-32.

3. Bakhtiyarovna M.Z. INTEGRATED TEACHING OF PRIMARY EDUCATION. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 2021. 9(12), 1332-1336.

4. Караматова Д.С. Синфдан ташқари машғулотлар орқали ўқувчиларни ижодий фаолиятга йўналтириш методлари. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2021. 1(2), 4-9.

5. Салаева М.С., Абдурасулова Ш.К. Педагог профессионализмининг шаклланиши касбий кадрят сифатида намоён бўлиши

7. Салаева М.С., Джумабаева М.Б. Педагогнинг кичик мактаб ёшидаги болаларни ижтимоий мобиллигини оширишга таъсири // IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, ISSN - 2181-2608. With Impact Factor: 8.2 SJIF: 5.426 - Б. 59–62. Retrieved from <http://www.sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/1552>

8. Салаева М.С., Бекназарова Х.Х. Бошланғич таълим ўқувчиларини ижтимоий мобиллигини ривожлантириш // EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE Innovative Academy Research Support Center UIF = 8.2 |

9. Салаева М.С., Ҳақназарова З.К. Касб таълими ўқитувчисининг профессионал-педагогик компетентлиги хусусида // Maktab va hayot. № 7-8. 2011. – Б. 32-33.

10. Салаева М.С. Муҳандис-педагог касбий компетентлиги ва профессионализмига психологик ёндашув // Maktab va hayot. № 2. 2012. – Б. 29-31.

11. Салаева М.С. Профессионализм ва касбий компетентлик / “Наука, образование и производство в обеспечении устойчивого развития инновационной экономики” материалы научно-практической конференции. Филиал МГУ имени В.М.Ломоносова. 15-16 апреля 2014 года. Часть 1. –С.215-217.

12. Салаева М.С., Искандарова М. Касб таълими ўқитувчисининг компетентлиги профессионаллашув омили сифатида / “XXI аср – интеллектуал авлод асри” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция. Ўзбекистон Республикаси хотин-қизлар «Олима» уюшмаси. 2014 йил 16 декабрь. – Б.199-202.

ИССИҚЛИК ТЕНГЛАМАСИНИНГ СИММЕТРИЯ ГРУППАСИ СОНЛИ МОДЕЛЛАШТИРИШ

Нарманов Отабек Абдигаппарович ^{1.},

Бегимов Ўктам Иброгимович ^{2.},

Рахмонова Нилуфар Нормуродовна ^{3.},

Камалова Севара Джабборбергановна ⁴

^{1,3,4}*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti*

²*Alfraganus universiteti*

otabek.narmanov@mail.ru

Аннотация: Бир ўлчовли иссиқлик тенгламалари учун аниқ ечимларни топиш учун дифференциал тенгламалар системасининг симметрия группасидан фойдаланишга бағишланган.

Калит сўзлари: Симметрия группаси, Ли алгебраси.

Иссиқлик ўтказиш коэффициенти чизиқли бўлмаган квазичизиқли иссиқлик тенгламаси бошқа кўплаб жараёнларни ҳам тавсифлайди, масалан, ғовакли мухитда газ ҳаракати, диффузия, кўшимча иссиқлик манбаи мавжуд эмас тахмини остида иссиқлик узатиш каби жараёнларни ишлатилади. Иссиқлик ўтказувчанлиги коэффициенти ҳароратнинг чизиқли бўлмаган функцияси бўлган ҳол илмий дақиқотларда катта қизиқиш уйғотмоқда. Тадиқотлар шуни кўрсатадики, иссиқликнинг ўтказувчанлиги жуда кенг параметрлар диапазонида ҳароратнинг даражали функцияси билан тавсифланиши мумкин[1-2].

Ўлчовлар назариясини қўллаш орқали олинган ўзига хос ечимлар автомодел ечимлар деб аталади. Умумийроқ ёндашув шуни кўрсатадики, автомодел ечимлар - бу инвариант ечимлар деб аталадиган ечимларнинг хусусий ҳоли

бўлиб, уларнинг кўриниши дифференциал тенгламалар гуруҳ хусусиятлари назарияси алгоритмлари ёрдамида аниқланиши мумкин.

Барча инвариант ечимларнинг умумий хусусияти шундан иборатки, бир ўлчовли ҳолда хусусий ҳосилали дифференциал тенгламалар системаси учун қўйилган масалани оддий дифференциал тенгламалар учун қўйилган масалага олиб келиш мумкин.

Ҳозирги кунда дунёда замонавий математиканинг долзарб муаммоларидан бири бу ғовакли муҳитда иссиқлик ва бошқа газларнинг тарқалиши муаммосини ўрганишдир. Бу жараёнларни тавсифловчи реал физик жараёнларни ўз ичига олган аниқ ечимларни ечимларни ўрганиш ва топиш жуда муҳимдир.

Мамлакатимизда математиканинг долзарб муаммоларига, хусусан, табиий жараёнларда илмий ва амалий қўлланиладиган математик модел-лаштириш масалаларига алоҳида эътибор берилмоқда. Шу жумладан, физик ва химик жараёнларни математик моделлаштиришда “Математик физика, амалий математика ва математик моделлаштириш, Дискрет тузилмалари” фанларининг устувор йўналишлари бўйича юқори рейтингга эга бўлган мамлакатлар даражасида илмий изланишларни кучайтириш бу соҳадаги фаннинг асосий вазифалари ва йўналишлари этиб белгиланди[1-2].

$$u_t = (k(u)u_x)_x \quad (1)$$

> restart;

> with(PDEtools):with(ODETools):with(plots):

> PDE:=diff(u(t,x),t)=diff(u(t,x)^(-1/2)*diff(u(t,x),x),x)+u(t,x)^(-5/2);

$$PDE := \frac{\partial}{\partial t} u(t, x) = -\frac{1}{2} \frac{\left(\frac{\partial}{\partial x} u(t, x) \right)^2}{u(t, x)^{3/2}} + \frac{\frac{\partial^2}{\partial x^2} u(t, x)}{\sqrt{u(t, x)}} + \frac{1}{u(t, x)^{5/2}}$$

> **IBC3 := {u(0,x)=exp(-x^2),u(t,2)=exp(-4-t^2),u(t,0)=exp(-t^2)};**


$$IBC3 := \{u(0,x) = e^{-x^2}, u(t,2) = e^{-4-t^2}, u(t,0) = e^{-t^2}\}$$

> **smod3 := pdsolve(PDE, IBC3, type=numeric,range=0..2,method=ForwardTimeCenteredSpace,time=t, timestep=1/20000);**

```
smod3 := module( )
  export plot, plot3d, animate, value, settings;
  ...
end module
```

From this solution a series of plots at different times can be generated and displayed in the same plot.

```
> p1 := smod3:-plot(t=0,colour=red):
p2 := smod3:-plot(t=1/5,colour=green):
p3 := smod3:-plot(t=1/3,colour=blue):
p4 := smod3:-plot(t=1/2,colour=black):
p5 := smod3:-plot(t=1,colour=brown):
plots[display]({p1,p2,p3,p4,p5},
  title='surface of u(x,t) at t=0,1/5,1/3,1/2,1');
```




```
> smod3:-value(t=1,output=listprocedure);  
>  
> uval := rhs(op(3,%));  
>  
> fsolve(uval(x)=1/2,x=0..2);  
>  
> smod3:-plot3d(t=0..1,x=0..2,axes=boxed);  
>
```

```
[t = 1., x = proc(x) ... end proc, u(t, x) = proc(x) ... end proc]
```

```
uval := proc(x) ... end proc
```

```
1.73072065
```



АДАБИЁТЛАР

1. O.A.Narmanov. Lie algebra of infinitesimal generators of the symmetry group of the heat equation // Journal of Applied Mathematics and Physics, 2018,6, pp. 373-38 [https://doi.org/10.4236/jamp.2018.62035\(2-GJIF=0.54\)](https://doi.org/10.4236/jamp.2018.62035(2-GJIF=0.54))

2. М.М.Арипов., О.А.Нарманов. Инвариантные решение двумерного уравнения теплопроводности теплопроводности // V Международная научно-практическая конференция, Наука и образование в современном мире: Вызовы XXI века, Нур-Султан, Казахстан 10-12 декабря, 2019 Г. 98-105 стр.

ОТКЛОНЯЮЩЕЕСЯ ПОВЕДЕНИЕ КАК ПРЕДМЕТ ИЗУЧЕНИЯ ГУМАНИТАРНЫХ И ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК

Тиллябаева Малика Хабибуллоевна

студентка 4 курса направления Педагогика и психология дошкольного образования, факультета дошкольного образования Ташкентского государственного педагогического университета

***Аннотация:** Девиантное и делинквентное поведение представляют собой социальные проблемы, которые требуют внимания и решения. Необходимо предоставлять детям и молодым людям возможности для получения качественного образования, социальной поддержки и психологической помощи.*

***Ключевые слова:** Делинквенция, девиация, социальные факторы, негативный опыт, концепция, поведение, социальный контроль.*

Введение:

Отклоняющееся поведение - явление, которое привлекает внимание ученых гуманитарных и естественных наук. Это интересное и сложное явление, которое требует специального изучения и объяснения. В данной статье мы рассмотрим основные аспекты отклоняющегося поведения, понятие девиантного и делинквентного поведения, взаимосвязь девиации и нормативной структуры общества, а также концепции девиантного поведения, предложенные Т. Парсонсом. Также мы рассмотрим социальный контроль в обществе и его методы.

Девиантное и делинквентное поведение представляют собой социальные явления, которые имеют существенное влияние на общество. Здесь мы рассмотрим понятия и характеристики девиантного и делинквентного поведения, а также их проявления в современном мире.

1. Определение девиантного поведения:

- Девиантное поведение - это отклонение от установленных социальных норм и ценностей в определенном обществе.

- Девиантное поведение может быть физическим (например, нарушение общественного порядка) или нематериальным (например, нарушение моральных или этических норм).

2. Проявления девиантного поведения:

- Преступность и правонарушения.

- Злоупотребление наркотиками и алкоголем.

- Половые и гендерные девиации.

- Суицидальное поведение.

- Наркомания и проституция.

3. Определение делинквентного поведения:

- Делинквентное поведение - это поведение, которое совершается подростками и молодыми людьми и является нарушением закона или норм поведения.

- Делинквенция связана с незавершенным процессом социализации и часто имеет корни в социальных, психологических или экономических факторах.

4. Проявления делинквентного поведения:

- Хулиганство и склонность к насилию.

- Кражи и грабежи.

- Безнаказанное поведение в общественных местах.

- Пропуски школы и низкая успеваемость.

- Вовлечение в преступную субкультуру.

5. Причины девиантного и делинквентного поведения:

- Социальные факторы, такие как неблагополучные семейные условия, низкий социально-экономический статус, отсутствие поддержки и контроля.

- Психологические факторы, включая низкую самооценку, проблемы в общении и адаптации, недостаток навыков разрешения конфликтов.

- Получение негативного опыта в обществе, такого как неблагоприятное окружение или негативные поведенческие модели.

Концепция девиантного поведения Т. Парсонса

Теория Т. Парсонса является одной из ведущих концепций, объясняющих девиантное поведение. Девиантное поведение в данной концепции рассматривается как результат несовпадения индивидуальных целей и целей общества, а также как проявление социального конфликта. Наша работа на основе этой концепции будет включать в себя следующие основные аспекты.

Концепция Т. Парсонса

В этом разделе следует представить основные идеи концепции Т. Парсонса относительно девиантного поведения. Основные аспекты включают в себя концепцию субкультур, структурного функционализма, ролей и норм социального поведения.

Концепция субкультур

Теория Т. Парсонса предполагает, что в обществе существуют различные субкультуры, каждая из которых имеет свои особенности. Эти субкультуры формируются в результате конфликта между индивидуальными и коллективными целями, и могут приводить к возникновению девиантного поведения.

Структурный функционализм

Концепция Т. Парсонса основывается на структурном функционализме, который объясняет девиантное поведение как дисфункцию социальной системы. Девиантные действия нарушают установленные социальные нормы и могут вызывать социальный конфликт.

Роли и нормы социального поведения

Роли и нормы социального поведения играют важную роль в концепции Т. Парсонса. Роли определяют ожидания и требования, которые общество предъявляет к индивиду, а нормы определяют социальные ограничения на

поведение. Любое отклонение от ролей и норм может быть рассмотрено как девиантное поведение.

Применение концепции Т. Парсонса

В этом разделе рассматривается применение концепции Т. Парсонса на примере нескольких конкретных случаев девиантного поведения. Это может включать в себя анализ преступности, наркомании, алкоголизма и других форм девиантного поведения.

Критика и перспективы

В завершении следует представить критику концепции Т. Парсонса и возможные перспективы развития данной теории. Обсуждение критики позволит рассмотреть ограничения этой концепции, а перспективы позволят предположить ее дальнейшее развитие.

Заключение

В заключении статьи следует подвести итоги и сделать выводы о значимости концепции Т. Парсонса для объяснения девиантного поведения. Также можно упомянуть возможность использования данной концепции в практических исследованиях и разработке социальных программ.

Социальный контроль является неотъемлемой частью общественного порядка и стабильности. Он выполняет важную роль в формировании ценностей, норм и стереотипов поведения. Понимание методов социального контроля позволяет нам осознать, как общество формирует и поддерживает правила и нормы, а также какие последствия могут возникнуть в результате его недостаточности или чрезмерности. Чтобы создать устойчивое и гармоничное общество, важно найти баланс между социальным контролем и защитой индивидуальной свободы и самовыражения.

Литература:

1. Терехова, О. Е. (2023). Сущность, содержание и механизм формирования нравственных чувств старших дошкольников. *GOLDEN BRAIN*, 1(17), 107-112.
2. Терехова, О. Е. (2023, January). Профессиональная готовность в теории и практике педагогического образования. In International Scientific Conference "Innovative Trends In Science, Practice And Education" (Vol. 2, No. 1, pp. 30-36).
3. Терехова, О. Е. (2022). Исследования в области развития речи детей старшего дошкольного возраста. *Research And Education*, 110.
4. Ким, И. Н. (2023). Особенности использования цифровых технологий в дошкольном образовании. In Наука, технологии, инновации для развития экономики и общества (pp. 37-39).
5. Ким, И. Н. (2023). Значение цифровизации дошкольного образования в современном обществе. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 4(2), 55-57.
6. Терехова, О. (2022). Развитие творческих процессов–результат совершенствования психических функций. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 1(23), 17-20.

TA'LIM JARAYONIDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH (TARIX FANI MISOLIDA)

Yuldasheva Barno

Farg'ona viloyati Bog'dod tumani 20-maktab

Tarix fani o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Men ushbu maqolamda Umumta'lim maktablarida tarix darslarining tashkil etib borishga doir ayrim mulohazalarimni hamda ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanishni tarix fanlari misolida yoritilgan. Ta'lim berish jarayonida o'quvchilar darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning pedagogic shart-sharoitlari, hamda metodikasi yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar.** ta'lim, samaradorlik, tarbiya pedagogik texnologiya, o'quvchi, o'qituvchi, interfaol usullar, metodika, texnologiya, dars, pedagogika, fan, yosh avlod, barkamol shaxs.*

Hozirgi davrning dolzarb vazifalaridan biri yosh avlodni vatanga muhabbay va sadoqat, milliy g'urur, yuksak axloq va madaniyat, qadimiy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iborat. Mustaqillik xalqimizga haqqoniy tariximizni o'rganish orqali o'zlikni anglash uchun kring imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Yoshlarimizni Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha uzluksiz olib boriladigan ishlar biz uchun dolzarb ahamiyatga egadir. Barchamizga yaxshi ma'lumki vatanvarvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi.

O'zbekiston mustaqillik yillarida buyuk o'zgarishlar tomon yuz tutdi. bu ayniqsa ta'lim tizimida yaqqol ko'rinadi. Chunki ta'lim tizimi o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yadi. Yosh avlodga ta'lim berish jarayonida har bir darsda o'qituvchi o'zining fanini mukammal bilgan holda

innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda dars o'yish zarur. O'qituvchi o'quvchilarga fani bo'yicha dars berish jarayonida pedagogik texnologiyalardan interfaol usullardan foydalanib dars o'tishi hozirgi davrning eng dolzarb masalasi bo'lib qoldi.

Tarix fanini o'rgatish, birinchi navbatda, o'qituvchining bilimdonligi, fanni qay darajada bilishi, bolaning qay darajada qiziqтира olishiga bog'liqdir. O'qituvchi sinfda o'quv jarayoni tashkilotchisi va nazoratchisi hisoblanadi. Interfaol usulda o'qitilayotgan darslar o'qituvchidan ortiqcha ruhiy, jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt mobaynida yuqori natijalarga erishishni nazarda tutadi. Interfaol usulda dars o'tganda barcha o'quvchilar faol ishtirok etadilar, ya'ni dars o'tish jarayonida o'quvchilar guruhga bo'linib, yoki juftliklarda ishlaydilar hamda o'quv materialining ma'lum qismini mustaqil bajaradilar.

O'qituvchi esa darsni shakllantirib, o'quvchilarga ma'lum bir yo'nalishda yo'l ko'rsatib turadi. Ma'lumki, darsning turli xil o'yinlar asosida o'tilishi o'quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish va kuchli bo'lishlarini ta'minlaydi. O'yinlar, kinofilmlar yangi Pedagogik texnologiyaning eng samarali usullarida biri sifatida tan olinishi ham fikrimiz dalilidir.

Men tarix fani o'qituvchilari oldiga shunday maqsad qo'yishlarini so'ragan bo'lar edim. Har biringiz tarix fani darslarini o'tish jarayonida ilg'or innovatsion pedagogik texnologiyalaridan foydalangan holda mavzular bo'yicha dars o'tish vaqtida interfaol usullardan foydalanishni so'ragan bo'lar edim. Sababi misol uchun 5-sinfga qadam qo'ygan o'quvchilar tarix fani haqida tushunchaga ega emaslar sababi boshlang'ich sinfda ularga tarix fanlari o'qitib-o'rgatilmagan. Bu o'quvchilarni darsga qiziqtirib jalb qilish bu o'qituvchiga bog'liq.

O'qituvchi har bir darsida yangi-yangi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda dars o'tganda ularning eslab qolishlari yanada oson va tushunarli bo'lar edi. Shuning uchun men 5-sinflar uchun quyidagi: „Yurtimizning obodonchiligi, buyuk allomalari“, „Mirzo Ulug'bek va uning akedemiyasi“, „Yurt obodonchiligi, adabiyot va san'at“, „Turkisiyon ma'rifatparvarlari“, „Sohibqiron Amir Temur“,

„O‘zbekistonning tarixiy shaharlari”, „O‘zbekiston poytaxti Toshkent-2200 yoshda”, „O‘zbekiston-ning tarixiy-me‘moriy yodgorliklari”, „O‘zbekiston mustaqilligining qo‘lga kiritilishi”, „Ma‘naviy va ma‘rifiy yuksalish”, „Dunyo xavfsizligiga tahdid”, kabi mavzularda quyidagi interfaol ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda dars o‘tishni taklif qilib chiqaman va shu maqolamni taqdim etaman. Bu mavzularni o‘qitishda o‘quvchilar oson va tezda tushunib olishlari uchun slayli ma;ruza, rasmlar, vidiofilmlardan foydalanishsa maqsadga muvofiq bo‘lar edim.

O‘qituvchilar o‘quv jarayonining mazmun-mohiyatini tushunib yetgan holda murakkab mavzular bo‘yicha jami 38 ta interfaol usullardan foydalangan holda o‘tkazish tavsiya etiladi. Quyidagi interfaol usullarni 2019-2020 o‘quv yilida tarix fanlarini o‘qitish jarayonida tadbiiq etish mumkin.

„To‘rtinchi ortiqcha” o‘yini: yoki 3tasi rost 1ta yolg‘on

1guruh: 1.Shohruh Mirzo, 1018 ta yulduz, **ehromla**, Amir Temur

2 guruh: 1. 1394-yil, „**Hindiston**” asari, Qozizoda Rumi, Buxoro

3 guruh: 1Ali Qushchi, G‘ijduvon, Rasadxona, **Avesto**.

VENN diagrammasi

Ma‘mun akademiyasi

Ulug‘bek akademiyasi

Bu kabi interfaol usullar dars samaradorligini oshirishda, hamda talabalar (o‘quvchilar)ni darsga qiziqтира olishi, eslab qolish qobiliyatini shakllantirishda ahamiyat kasb etadi. Darsni o‘yinli tashkil etilsa talabalarning darsga bo‘lgan qiziqishi yanada ortib boradi, shuningdek, darsning sifatli o‘tishini ta‘minlaydi. Shu sababli darslarimizda pedadodik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib shuni aytib o‘tish joizki, Ta‘lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va axborot kommunikatsion tizimidan foydalanish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Axborot asri bo‘lgan hozirgi davrda ta‘lim jarayonida olingan axborotlarni qayta ishlash va tahlil qilishga o‘rgatish har bir fan o‘qituvchisining vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlarni ro'yxati

1. Mirziyoyev. SH. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. „O'zbekiston”, NMIU, 2018-yil. Qurolli kuchlar-Vatanimiz va Xalqimizning mustahkam qo'rg'oni. 229-230-bet.
2. Sagdiyev.A.,Fuzailova G., Hasanova M., Tarix oqish metodikasi.-Toshkent:TDPU, 2008.
3. Saidahmedov N. S. Yangi pedagogik texnologiyalar.-Toshkent: Molniya nashr. 2003.
4. Ro'ziyeva D. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanishi.-Toshkent. 2014.
5. Achilova T. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish (ingliz tili misolida.) Chet tillarni o'rganishni takomillashtirish masalalari (Iqtidorli talabalar ilmiy-amaliy konferensiya materiallari).-Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2015.-B. 10-13.

LEKSIKOLOGIYA VA UNDAGI MA'NO KO'CHISH USULLARI

Arabboyeva Makxfuzaxon Akramjonovna

Andijon davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi.

O'roqova Bahora Azamat qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti 2-bosqich talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi o'zbek adabiy tilidagi leksikologiya haqida ma'lumot berib o'tiladi va ma'no ko'chish usullari haqida atroflicha so'z yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** leksikologiya, o'z ma'no, ko'chma ma'no, metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik.*

KIRISH

Tishlari dur, oy yuzli, kipriklari o'q, lablari g'uncha shu kabi o'xshatishlar o'zbek tilining qanchalik go'zal ekanligiga va uning lug'at boyligiga yana bir isbotdir. Yosh avlodning og'zaki va yozna nutqini shakllantirish va uning so'z boyligini oshirish masalalariga to'xtalar ekanmiz tilshunoslikning so'z ta'limoti haqidagi bo'limi-leksikologiya ushbu yo'nalishdagi juda keng imkoniyatlarni yaratib bera olishini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Leksikologiya bo'limida o'quvchilar duch keladiga birinchi muammo esa so'zning o'z va ko'chma ma'nolaridir. Berilgan so'z birikmalarini ko'chma ma'nosiga ko'ra guruhlarga ajratish, ularni o'zaro qiyoslash asosida so'zni o'z va ko'chma ma'nolarida qo'llab gaplar tuzish, badiiy matnlarni tahlil etish so'zlarni ko'chma ma'nolarda matn yaratish singari ijodiy amaliy ishlar

o'quvchilarning so'z zaxirasini oshirish va nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir.¹

Leksikologiya (yunoncha so'z yoki so'z uchun va o'rganish) so'zlarning ma'nosini va ularning semantik munosabatlarini, bir tilning lug'at tarkibini o'rganadi. Leksikologiya bir so'zning yakka holda emas balki boshqa so'zlar bilan bog'liq holda o'rganadi. Leksikologiyaning o'rganilish obyekti va predmeti so'zdir.

O'z ma'no va ko'chma ma'no

So'zlarda ma'no ikki xil bo'ladi. O'z ma'no va ko'chma ma'no. O'z ma'no turi so'zlarni yakka holda kelganda ham matn tarkibida kelganda ham bir ma'no anglatishidir.² Yakka kelganda boshqa ma'no matn ichida kelganda boshqa ma'noni anglatrsa ko'chma ma'no bo'ladi. Masalan: qaynoq qalbli inson, sovuq xabar, ichi qora. Bu misollarda ko'rinib turganidek qaynoq, sovuq, qora so'zlari o'z ma'nosida emas ko'chma ma'noda qo'llangan. Chunki xabarning sovuq'i bo'lmaydi, qalbning esa qaynog'i.

Ma'no ko'chishi

O'zbek tilida ma'no ko'chishlari asosan so'zlashuv va badiiy uslublarda foydalaniladi.³ Ma'no ko'chishi- bir predmet yoki hodisa nomining keyinchalik boshqa predmet yoki hodisani anglatish xususiyatiga ega bo'lishidir. Bunday ko'chish shu nom bilan atalayotgan ikki yoki undan ortiq predmet yoki hodisa o'rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi. Masalan sovuq leksemasi haroratga nisbatan qo'llaniladi, ammo sovuq niyat qilmang birodar deyilganda sovuq so'zi haroratni emas niyatni va ifodalamoqda.

Leksikologiyada ma'no ko'chish turlari quyidagilar:

1. Metafora
2. Metonimiya
3. Sinekdoxa
4. Vazifadoshlik

Muhokama va natijala

¹H.Jamolxonov "Hozirgi O'zbek Adabiy Tili" Toshkent 2005

² www.cyberleninka.ru

³ Hozirgi o'zbek adabiy tili" akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik "Toshkent 2013

Metafora

Metafora yo‘li bilan ma’no ko‘chirilishi:

- a) ifodalanayotgan predmetlar o‘rtasidagi shakliy o‘xshashlik asosida: yoqa (ko‘ylakning yoqasi- bosh leksik ma,no), yoqa(ariqning yoqasi- hosila ma’no).
- b) ikkita belgi-xususiyat o‘rtasidagi nisbiy o‘xshashlik asosida:

Metonimiya

Metonimiya (grekcha meta- qayta, anoma-nom) predmet narsa hodisalarning makon va zamondagi bog‘lanishidan birining nomini ikkinchisiga ko‘chirish asosida yuzaga keladigan ma’nodir.¹ Bu usul bilan nom ko‘chirilishda tashqi, ichki belgidadi o‘xshashlik emas balki orasidagi doimiy aloqaning mavjudligi hisobga olinadi.

Metonimiya yo‘li bilan ma’no ko‘chirilishi:

- a) asar muallifining nomi nutqda “asar” ma’nosida qo‘llangan bo‘lishi mumkin: Fuzuliyning oldim qo‘limga,

Majnun bo‘lib yig‘lab qichqirdi. Bunday paytlarda muallif nomi aytiladi-yu, uning asari yoki asarlari nazarda tutiladi.

Sinekdoxa

Sinekdoxa (grekcha sinekdohe birga anglamoq) butun nomi bilan qismni yoki qism nomi bilan butunni ifodalash asosida so‘z ma’nolarini ko‘chishi. Sinekdoxa qisman o‘rin anglatish munosabatiga ko‘ra metonimiyaga kiradi.

Sinekdoxa yo‘li bilan ma’no ko‘chirilishi:

- a) butunning nomi qismga ko‘chiriladi: besh qo‘l barobar emas.
- b) qismning nomi butunga ko‘chiriladi: tirnoqqa zor.

Vazifadoshlik

Vazifadoshlik (funksiyadoshlik) bir predmetning vazifasini ikkinchi bir predmet bajarishi natijasida avvalgining nomini keyingisi ifodalashi asosida ko‘chishidir. Bu usul bilan ma’no ko‘chish bir tomondan metaforaga o‘xshasa ham, u metaforadan

